

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

*Qo'lyozma huquqida*  
**UDK:**

Qambarov Adhamjon To`xtamamatovich

**MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISH  
SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI KAPITALINI  
SHAKLLANTIRISH VA UNI BOSHQARISH**

Mutaxassisligi: 5A111001-Kasb ta`limi (Moliya)

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A S I Y A**

Ilmiy rahbar: dots.R.A.Botirova

Namangan-2013

## Mundarija

|                                                                                                                                    |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish.....                                                                                                                        | 3  |
| <b>1-bob. Tijorat banklari kapitalini shakllantirish xususiyatlari</b>                                                             |    |
| 1.1. Tijorat banklari kapitalining mohiyati.....                                                                                   | 7  |
| 1.2. Bank kapitali tarkibi.....                                                                                                    | 17 |
| 1.3. Bank ustav kapitalini shakllantirish xususiyatlari.....                                                                       | 27 |
| <b>2-bob. Tijorat banklari kapitalini shakllantirishga talablar</b>                                                                |    |
| 2.1. Bank kapitali shakllantirilishi bo`yicha normativ talablar.....                                                               | 37 |
| 2.2. Bazel-3 qoidalari va ularning O`zbekistonda qo`llash imkoniyatlari...                                                         | 41 |
| 2.3. Chet el kapitali ishtirokidagi “Savdogar” ochiq aksiyadorlik tijorat banki kapitali shakllanish xususiyatlari.....            | 49 |
| <b>3-bob. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida bank kapitalini takomillashtirish</b>                                           |    |
| 3.1. Banklar kapitallasuvi rivojlanish tendentsiyalari.....                                                                        | 56 |
| 3.2. Tijorat banklari kapitali shakllanishi ustidan Markaziy bank tomonidan olib boriladigan siyosatning takomillashtirilishi..... | 66 |
| <b>Xulosa.....</b>                                                                                                                 | 81 |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....</b>                                                                                     | 84 |

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Prezidentimiz I.A.Karimov taʼbiri bilan aytganda, “Bank tizimini qoʻllab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – Oʻzbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yoʻlidir”<sup>1</sup>.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi ixtiyoridagi boʻsh turgan pul mablagʻlarini imkon qadar koʻproq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdai iborat. Bu jarayonda tijorat banklarning kapitali banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bozor sharoitlarida bank kapitalini ikki katta guruhga boʻlish mumkin. Bular, banklarning oʻz mablagʻlari va jalb qilingan mablagʻlardir. Jalb qilingan resurslarni baʼzi hollarda ikkiga boʻlib qaraladi — bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, yaʼni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri koʻp jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda oʻz ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining oʻzgarishi ham taʼsir kiladi.

Banklar moliyaviy resurlarining asosiy qismini bank mijozlarining mablagʻlari tashkil kiladi. Bank boshqa kapitallarni jalb qilish uchun oʻz kapitalining yetarli darajasi miqdorini koʻrsatish lozim.

Koʻpgina mamlakatlarning bank tizimlari hanuzgacha moliyaviy inqiroz oqibatlaridan qattiq taʼsirlanish holatidadir. Oʻzbekistonning moliyaviy tizimi inqirozga duch kelgan moliyaviy tizimlar bilan kuchli bogʻlanmaganligi tufayli bu

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T.: Oʻzbekiston, 2009, 29-b.

inqirozlarning to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ta'siri sezilarli darajad emas. Jahon moliyaviy inqirozi bizning respublikamiz iqtisodiyotiga tashqi moliyalashtirishni kamaytirish va tashqi savdo hajmlarini qisqartirish orqali ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining inqirozga berilmasdan, iqtisodiyoti, moliya institutlari shu holda saqlab qolingani, bunga erishish borasida bajarilgan ishlar, xususan, tijorat banklarini kapitalini shakllantirish va uni boshqarish jarayonlariga oid ishlarni tadqiq qilinishi magistrlik dissertasiyasi dolzarbligini ko'rsatib beradi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarini kapitalini shakllantirish maqzusunda, bir qator xorijlik va respublikamiz olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Piter Rouz, Timoti U. Kaj, Yu.S. Maslennenkov, E.A. Utkin, V.V. Ivanov, V.I.Kolesnikov, L. P. Krolivetsko, F. Mullajonov, X. Qoriev, Sh. Abdullaeva, I. Sirojiddinov, A. Qodirov, Sh. Saidboyev kabilar bu sohada chuqur izlanishlar olib borishgan. Tijorat banklarini kapitalini shakllantirish sohasida tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tijorat banklarini kapitalini shakllantirish va mustahkamlash jarayonlarini keng yoritib, kasb-hunar kollejlari talabalariga samarali o'qitish usullarini aniqlashdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari.** Magistrlik dissertasiyasi o'z maqsadi nuqtai nazaridan qo'yilgan masalalarni hal etish bevosita quyidagilarni o'rganib chiqishni taqozo etadi:

- Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi roli;
- Tijorat banklari kapitali mohiyati va tarkibi;
- Tijorat banklari kapitalini shakllantirishning me'yoriy huquqiy asoslari;
- Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi ta'sirini bartaraf etish sharoitlarida tijorat banklari kapitalini mustahkamlash;
- Tijorat banklari kapitallashuvi darajasiga talablar;
- Tijorat banklari kapitalini mustahkamlash choralari;
- Tijorat banklari faoliyati moliyaviy iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash;

- Pedagogik texnologiya tamoyillarini yoritib, uning asosida mavzuni o`qitish metodikasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning predmeti.** Magistrlik dissertasiyasining predmeti bo`lib, tijorat banklarining kapitalini shakllantirish va uni mustahkamlash borasidagi qarashlar hisoblanadi.

**Tadqiqot ob`ekti.** Tadqiqot ob`ekti Ozbekiston Respublikasi bank tizimi va uning kapitalini shakllantirish va mustahkamlash masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning nazariy asoslari.** Magistrlik dissertasiyasining nazariy asoslarini Prezident asarlari, iqtisodiy adabiyotlar, iqtisodiy gazeta va jurnallar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning uslubiy asoslari.** Tadqiqotning uslubiy asoslari sifatida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami, bank nazorati bo`yicha me`yoriy hujjatlar to`plami, tijorat banklarining hisobot materiallari qaraladi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Ishning amaliy ahamiyati rivojlangan mamlakatlar tajribasiga suyanib, tijorat banki kapitalini shakllantirish va barqarorligini ta`minlash bilan bevosita birgalikdagi takliflar va shu mavzuni o`qitishning metodik asoslaridan kasb-hunar kollejlarida o`qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibi.** Magistrlik dissertasiyasi kirish, 3 ta bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Kirish mavzuning dolzarbligi, o`ranilganligi, maqsadi, ahamiyati kabilarni qamrab olgan.

Magistrlik dissertasiyasimizning birinchi bobida tijorat banklari kapitalini shakllantirish xususiyatlari masalalariga yoritilgan.

Ikkinchi bobda tijorat banklari kapitalini shakllantirishga talablar yoritilgan.

Uchinchi bob mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida bank kapitalini takomillashtirish masalalari va mavzu bo`yicha o`qitishning metodik asoslaridan iborat.

Xulosa qismida tadqiqot natijalariga oid xulosalar berilgan.

Dissertasiya yakunida foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari ro`yxati keltirilgan.

## **1-bob. Tijorat banklari kapitalini shakllantirish xususiyatlari**

### **1.1. Tijorat banklari kapitalining mohiyati**

Tijorat banklar kapitali bank boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning zarurligi - bank amalga oshirayotgan aktiv faoliyatda hamda operatsiyalar miqdorida bilinadi. Bank kapitali aktiv operatsiyalar orqali iqtisodiyotga joylashtirilgan miqdoridan daromad shakllanadi. Chunonchi, bank kapitali qancha ko'p bo'lsa, daromadi ham ko'payadi.

Odatda, bankirlar bank kapitalini bank passivlari ham deb atashadi. Bu ibora bank kapitalining asosan bank balansining passiv qismida joylashganligidan kelib chiqqan. Ya'ni, bank passivlari - uning resurs mablag'larning vujudga kelish manbalari va ularning qaysi guruhga taaluqliligini ifodalab beradi.

Tijorat banklar o'zlarining aktiv faoliyatini o'zlarida mavjud bo'lgan o'z va jalb qilingan pul mablag'lar doirasida yurita oladilar. Aynan passiv operatsiyalar aktiv operatsiyalarni olib borish uchun asos yaratadi hamda daromadli operatsiyalarining hajmini va ko'lamini aniqlab beradi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklar kapitali deganda, aktiv operatsiyalarga asos yaratuvchi va ularni amalga oshirish uchun ishlatiluvchi, ularning hajmi va masshtabini aniqlab beruvchi mablag'larga aytiladi.

Bank kapitalini puxta o'rganish uchun ularni guruhlariga ajratib tasniflash lozim. To'g'ri, bank kapitalining turkumlanishi ularni boshqarishda jiddiy o'zgarish yaratmaydi, ammo ularni o'rganishning tizimli yondashuvini vujudga keltirish uchun asos yaratadi.

Tijorat banklari kapitalining shakllanishi jihatidan tasniflanishi bankirlar va iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha o'rganiladi. Bu boradagi o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan asosiy uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi guruh olimlari - «bank kapitalini shakllanishi jihatidan ikkiga bo'lib o'rgangan, ya'ni bank kapitali bankning o'z kapitali va jalb qilingan mablag'lardan iborat» deb ta'kidlovchi olimlardir. Bu guruhga Rossiya olimlaridan - Bukato V.I. va Lvov Yu.I.larni va boshqa olimlarni kiritish mumkin. Ular o'zlarining «Banki i

bankovskie operatsii v Rossii»<sup>2</sup> kitobida. Lavrushin O.I. «Bankovskoe delo» kitobida «tijorat bank kapitali shakllanishi jihatidan, o`z kapitali va jalb qilingan mablag`larga bo`linadi»<sup>3</sup>, - deb aytib o`tgan. Maslennikov Yu.S. «Finansovo`y menejment v kommercheskom banke» kitobida: «bank kapitalini o`z va jalb qilingan mablag`lardan tashkil topadi»<sup>4</sup>, - deb o`rganadi. Bularning ishlaridan ko`rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi-olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko`p e`tibor berib, bank kapitalini faqat ikki guruhga bo`lib o`rganganlar.

Ikkinchi yo`nalish olimlari, bu guruhga Rossiya olimlaridan - Sadvakasov K.K., Kiselev V.V.lar kiradi. Bu guruh olimlari bank kapitalini o`rganishda tarkibiy jihatdan uch yirik guruhga bo`lib tasniflaydilar. Ya`ni, bank kapitali bankning o`z mablag`lari, jalb qilingan mablag`lari va emitentlashgan mablag`lar. Rossiya olimlarining ikkinchi guruhi kabi, O`zbekistonlik olimlardan Abdullaeva Sh. Z. ham bank kapitalini uch yirik guruhga bo`lib o`rgangan. Xususan, Sh.Z.Abdullaeva o`zining «Bank ishi» kitobida: «Tijorat banklarining kapitali bankning o`z mablag`lari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag`lar hisobidan shakllanadi»<sup>5</sup> - deb ta`kidlagan.

Rossiya va O`zbekiston iqtisodchi-olimlardan farqliroq, uchinchi guruh olimlari, bularga yevropa va AQSH iqtisodchi-olimlari kiradi, bank kapitalini o`rganishda bank kapitali va bank passivlariga bo`lib o`rganadilar. Ya`ni bank passivlariga bank kapitalini qo`shmaydilar. Jumladan, AQSH iqtisodchi olimlari «Financial Markets»<sup>6</sup> kitobida, Shveytsariya olimlari Claudia Dziobek «Instruments for Bank Restructing»<sup>7</sup> ilmiy ishida, Rode V. «Commercial Banks in a modern economy»<sup>8</sup> kitobida bank kapitalini - bank passivlariga va bank kapitaliga bo`lib o`rgangan.

---

<sup>2</sup> Букато В.И., Львов Ю.И. Банки и банковские операции в России. Москва, «Финансы и Статистика» нашірети, 1996 йил 139-бет.

<sup>3</sup> Лаврушин О.И. Банковское дело. Москва, «Финансы и Статистика» нашірети, 1999йил, 69-бет.

<sup>4</sup> Масленников Ю.С. Финансовый менежмент в коммерческом банке. Москва, «Перспектива» нашірети, 1996 йил, 25-бет.

<sup>5</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Toshkent, Toshkent Moliya Instituti nashriyoti, 2000-yil, 31-bet

<sup>6</sup> Michael G. Hajimichankis. Contemporary Money, Banking and Financial Markets. Richard D. Irwin, Inc.Boston, MA 02116.

<sup>7</sup> Claudia Dziobek. Market-Based Policy Instruments for Systemic Bank Restructing. Working Paper, //International Monetary Fund// No.113, 1998, 9-бет.

<sup>8</sup> Rode V. Commercial Banks in a modern economy. //Switzerland Press// Switzerland. 1998.



Biz tijorat banklarining kapitalini faqat ikki guruhga, ya'ni o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larga bo'lib o'rganmoqchimiz. Chunki, bizning fikrimizcha, qarz mablag'lar yoki emitentlashgan mablag'lar ham chetdan jalb qilinadi, shuning uchun ularni alohida guruhga bo'lib o'rganish shart emas deb hisoblaymiz va qarz hamda emitentlashgan mablag'larini jalb qilingan mablag'larning bir bo'lagi sifatida ko'rib chiqamiz. Bunday yondashuv, bizning fikrimizcha, bank kapitalini tushinishni soddalashtiradi. 1-chizmada biz tavsiya etgan bank kapitalining klassifikatsiyasi ko'rsatilgan.


Birinchi rasmdan ko'rinib turibdiki, tijorat bank kapitalining asosiy ikki guruhining birinchi guruhi - o'z mablag'lari hisoblanadi.

Banklarning o'z mablag'lari - bu bankka tegishli bo'lgan mablag'lar bo'lib, ularga bank kapitali, taqsimlanmagan foyda, kelgusi davr daromadlari, hisob-kitoblar tizimidagi o'z mablag'lar va nomoddiy aktivlar kiradi. Demak, bankning o'z mablag'lari deb, tijorat va xo'jalik faoliyatidagi moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun hosil qilingan turli fondlar hamda o'tgan va joriy yil faoliyatidan olingan daromadni tushinish kerak.

Bankning o'z mablag'lari tarkibi bir xil emas va turli omillar orasida o'zgarishi mumkin. Masalan, ularning aktivlari sifati, o'z daromadidan foydalanishi, strategiyasi, bankning kapital bazasini ta'minlash bo'yicha siyosati kabilarga bog'liq.

Tijorat banklari passivlarining ikkinchi guruhi - bu jalb qilingan mablag'lardir. Bu mablag'lar bank ta'sischilariga tegishli emas, ular chetdan, ya'ni bank mijozlaridan jalb qilinadi. Bank muassasalarining xususiyati ham shundan iboratki, ularning kapitalining asosiy qismi jalb qilingan mablag'lardan iboratdir. Tijorat banklarning resurslarni jalb qilinishi Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi va u tijorat banklarning o'z mablag'lari hajmidan va huquqiy-tuzulishi shaklidan kelib chiqadi.

## Tijorat banklari kapitalining klassifikatsiyasi



Ixtiyoriy bank passivlarining asosiy qismini - depozitlar tashkil etadi. «Depozit» soʻzi - bir necha maʼnoni bildiradi. Masalan, banklarga yoki boshqa kredit-moliya tashkilotlariga saqlashga berilgan pul mablagʻlari yoki qimmatli qogʻozlar, bojxona boji toʻlanadigan qoʻyilmalar, yigʻilgan soliqlar, riskni taʼminlash uchun administrativ organlardagi qoʻyilmalar va hakoza. Iqtisodchilar «depozit» tushunchasiga bir qancha fikrlar bildirganlar. Baʼzi iqtisodchilar, depozitni - qoʻyilma, omonat yoki vaqtincha boʻsh turgan pul mablagʻlari deb izohlaydilar. Ammo, bizning fikrimizcha, bunday alohida kategoriya sifatida boʻlishi shart emas, chunki bularning hammasi bir maʼnoni anglatadi. Agarda ularning funktsiyalari yoki ular bajaradigan vazifalar turlicha boʻlganda edi, ularni turli atamalar bilan izohlash maqsadga muvofiq boʻlar edi. Ortiqcha atamalar kiritilishi esa tushunmovchiliklarga olib keladi. Shuningdek, Frantsuz olimi P yer Berje, oʻzining «Pul mexanizmi» kitobida, «...depozit (qoʻyilma) - deganda, chalkashishlar kelib chiqadi. Kredit raqami yoki kredit sal dosi degan terminlar, depozitlarning mohiyatini yanada toʻliqroq tushuntiradi...»<sup>9</sup> degan fikrni yuritadi.

Biz depozit tushunchasini shunday ifodalaymiz: «Depozit bu kredit muassasalarida saqlash yoki maxsus-maqsadga qoʻyiladigan pul mablaridir».

Toʻgʻri, soliq summasi noaniq paytda, oldindan toʻlangan summa ham, boj uchun oldindan oʻtkazilgan summa ham, saqlash uchun berilgan qimmatli qogʻoz ham depozit deb atalishi mumkin. Ammo, oldindan toʻlangan soliq yoki boj - avans toʻlovi deyilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Shunday qilib, depozit soʻzi faqatgina kredit muassasalaridagi raqamlardagi mablagʻlarga aytilishi kerak. Bunday klassifikatsiya chalkashishlarning oldini oladi.

Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, Rossiya olimlarining: «vaqtincha boʻsh pul mablagʻlari» - degan fikrini depozit taʼrifidan olib tashlash kerak. Chunki, agarda depozit foizidan keladigan daromad, xoʻjalik subʼektining «ishchi mablagʻlari»dan keladigan daromadga nisbatan yuqoriroq boʻlsa, bu subʼekt

---

<sup>9</sup> Пьер Берже, Перевод с французского языка /Общая редакция Л.Н.Красавина/«Денежный механизм», Москва, А/О Издательская группа «Прогресс» 1993 г. 21-22-бетлар.

barcha mablag`larini depozit raqamiga qo`yadi va uning foizini oladi. Demak, depozitga qo`yladigan mablag` bo`sh bo`lishi shart emas.

Depozitlar banklarda ma`lum vaqtda qolib, kredit oluvchi mijozga ma`lum daromad keltiradi, shuning bilan birga bankka ham daromad keltiradi. Banklarning daromadi qarz oluvchining foiz summasidan kreditorga to`lovchi foiz summasi farqi orqali kelib chiqadi.

Xalqaro bank amaliyotida, qo`yilmalarga mablag`larni jalb qilish bilan bog`liq operatsiyalarni - depozit operatsiyalar deyiladi. Depozit operatsiyalarga, ma`lum bir muddatga yoki talab qilib olinguncha depozitga jalb qilish bilan bog`liq operatsiyalari kiradi. Depozit operatsiyalarining sub`ektlari: bank - qarz oluvchi bo`lib, pul egalari - kreditor bo`lib hisoblanadi. Ya`ni, sub`ekti sifatida: davlatning korxona va tashkilotlari, muassasalari; kooperativlar, aktsioner jamiyatlar, qo`shma korxonalar, jamiyat tashkilotlari va fondlari, moliyaviy va sug`urta kompaniyalari, investitsion va trast kompaniyalar va fondlar, jismoniy shaxslar, bank va boshqa kredit tashkilotlari ishtirok etishi mumkin. Ob`ekti bo`lib esa, bankga berilgan pul mablag`lari hisoblanadi.

Demak, mijozlardan va boshqa kreditorlardan mablag` jalb qilish- banklarning passiv operatsiyalarning asosiy ko`rinishi hisoblanadi. Bu mablag`lar jalb qilinishi turiga qarab, depozit raqamlari ham turli xil bo`ladi. Ularni - depozitni tashkil qilish manbai bo`yicha, maqsadliligi, foiz darajasi va hakoza mezonlar bo`yicha klassifikatsiyalash mumkin. Ammo, negizi sifatida, mijozning kategoriyasi va depozitni olinishi bo`yicha amaliyotda keng ko`llaniladi.

Bu kategoriyalar bo`yicha klassifikatsiyalanishi turli mamlakatlarda turlichadir. Masalan, AQSH da depozitlarni asosiy ikki guruhga, ya`ni transaksion va notransaksion depozitlarga bo`lib o`rganadi<sup>10</sup>. Bizning Respublikamizda, depozitlarning iqtisodiy mohiyati va ishlatish muddatiga qarab uch guruhga bo`lib o`rganiladi. Bular - talab qilinguncha (aniq muddat belgilanmaydigan), muddatli

---

<sup>10</sup> Izoh: AQShda muddatsiz depozitlar - transaksion va muddatli hamda jamg`arma depozitlarni notransaksion depozitlar guruhiga kiritadi. Manba: Anthony Saunders «Financial Institutions Management - a modern perspective»//Irwin McGraw-Hill, Ikkinchi nashr, 2010 yil, 339-bet.

(ma`lum bir muddatga qo`yiladigan) va jamg`arma (jamg`arish uchun qo`yiladigan) depozitlar.

Umuman, tijorat bankining resurs potentsialini tashkil etuvchi bank passivlarining shakllanishi va optimallashtirish jarayonlari, barcha pul mablag`larining manbalarini boshqarish sifatida muhimlikni talab qiladi. Bankning doimiy resurs bazasi uning ssuda va boshqa aktiv operatsiyalarni muvaffaqiyatli o`tkazishga yordam berar ekan, har bir tijorat bank kapitalini oshirishga harakat qiladi.

Birinchi rasmdan ko`rinib turibdiki, tijorat bank kapitalining asosiy ikki guruhining birinchi guruhi - o`z mablag`lari hisoblanadi. Bankning o`z mablag`lariga quyidagicha ta`rif berilishi mumkin.

Bankning o`z mablag`lari deb, tijorat va xo`jalik faoliyatidagi moliyaviy barqarorligini ta`minlash uchun hosil qilingan turli fondlar hamda o`tgan va joriy yil faoliyatidan olgan taqsimlanmagan foydalarni tushunish kerak.

Tijorat banklari o`z mablag`larining ichida asosiy rollardan birini bank kapitali bajaradi. Bank kapitali likvid moliyaviy, lekin daromad keltirmaydigan yoki juda ham daromad keltiruvchi aktivlarga hizmat qiladi. Bank kapitalining xususiyati shundan iboratki, uning salmog`i bank kapitalida kichik bo`lishiga qaramasdan, u zarur funktsiyalarni bajaradi.

Bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va uning faoliyat ko`rsatishi uchun eng asosiy zaruriyatlardan biridir. Bank kapitali bank balansining passivida joylashadi. Bank o`z kapitali bankrot holatiga tushganda da`volarni qoplashining muhim sug`urta fondi va bank operatsiyalarini rivojlanishini moliyalashtirish manbasi bo`lgani uchun unga alohida e`tibor beriladi. Ko`pchilik tijorat banklar aksioner bank hisoblanadi. Har bir bankning kapitali aksionerlar investitsiya qilgan va keyinchalik foyda va zarar hisobiga qo`shilgan yoki ayirilgan qiymatiga teng bo`ladi.

O`z kapitalning salmog`i qancha katta bo`lsa, shunchalik ko`p yuqori likvidli aktivlar bank majburiyatlariga hizmat ko`rsatadi. Buning natijasida jalb qilingan mablag`lar bo`yicha majburiyatlar bajarilgani uchun mablag`lar qaytish darajasi mablag`lar ketish darajasidan oshadi. Bu holat bank qarz oluvchi bo`lib ishlaganda,

mablag`larni joylashtirish muddati va summasining mablag`lar qaytarilishi summasi va muddati bilan mos kelishini oson nazorat qiladi.

Ustav yoki aktsioner kapitalga qo`yiladigan qimmatli qog`ozlar yuqori likvidli bo`lishlari kerak. Ular uchinchi shaxs tomonidan chiqarilgan bo`lishi kerak. Aktsionerning o`zi chiqarilgan qimmatli qog`ozlari ustav yoki aktsioner kapitalga qo`yilishi mumkin emas. Kapitalga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar shartnoma tuzilgan kundagi bozor bahosida hisobga olinadi.

Agarda, qo`yilma natural shaklda qo`yiladigan bo`lsa, unda har bir aktsioner, mulkni mustaqil auditor baholashini so`rashi mumkin. Kapitalga qo`yilgan material mulkning ulushi (binodan tashqari) birinchi 2 yil uchun 20%dan oshmasligi kerak va keyingi vaqt uchun 10%dan ham bo`lmasligi kerak. Intelektual boylikning ulushi 1%dan oshmasligi kerak.

Shunday qilib, bank kapitali - kredit operatsiyalarni amalga oshirish uchun bir manba bo`lib, shu bilan bir qatorda jalb qilingan mablag`larni qaytarishda kafolat bo`lib hisoblanadi.

Tijorat banklari jalb qiladigan mablag`lar tarkibi turlichadir. Bular:

- Mijozlarning hisob raqamlaridagi mablag`lari;
- Boshqa banklarni shu bankdagi korrespondentlik hisob varaqlaridagi mablag`lari;
- Aholi depozitlari;
- Aholiga qimmatli qog`ozlar sotishdan tushadigan mablag`lar;
- Lizing operatsiyalari uchun sotib olingan va to`plangan tovar moddiy boyliklar;

Bank depozitlari ichida eng ko`p qismini - talab qilinguncha depozitlar tashkil etadi. Talab qilinguncha depozit raqamlarining mohiyati, bu raqamdagi qoldiqni mijozlar ixtiyoriy paytda hech qanday oldindan ogohlantirmay qisman yoki hammasini olishi, shuningdek, to`lov uchun o`tkazishi mumkin, ya`ni talab qilingan paytda mijozga bank darhol to`lab beradi. Shuningdek, bu depozitni - joriy raqam yoki hisob-kitob raqami deb ham aytishadi.

Depozit raqamlarining ikkinchi guruhi hisoblanuvchi, no-transaksion raqamlarning turlari ko'p, ammo ular uchun yagona nom yo'q. Shuning uchun biz bu raqamlarni investitsion raqamlar deb ataymiz. Ularni ba'zi iqtisodchilar «muddatli depozitlar», ba'zilar «investitsion depozitlar» deydi yana boshqalari esa «no-transaksion depozitlar» deb ataydilar.

Muddatli depozitlar - ma'lum muddatda bankda saqlanadigan pul mablag'laridir. Bularga, veksel, sertifikat hisobi, aholining muddatli va maqsadli qo'yilamalari, saqlash muddati taxminan belgilanmagan, ammo oson aniqlanadigan raqamlar kiradi. Misol qilib, byudjet mablag'lari raqamlari yoki kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbasi raqamlarini aytishimiz mumkin.

Muddatli depozitlar - yirik depozitorlar uchun mo'ljallangan. Bu raqam bo'yicha yuqori foiz to'lanadi, ammo talab qilinishi bilan darhol olinmaydi.

Muddatli depozitlar - bu bank tomonidan ma'lum bir muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Muddatli depozitlarda mablag' shartnomada keltirilgan muddatga bankka foydalanishga topshiriladi, bu muddat tugashi bilan uning egasi mablag'ini qaytarib olishi mumkin.

Jalb qilingan mablag'lar ichida muddatli depozitlar asosiy rolni egallaydi.

Jamg'arma depozitlar - odatda kichik depozitlar uchun ishlatiladi. Bu raqamlar bo'yicha foiz ham to'lanadi va depozit so'rab olinishi mumkin.

Jamg'arma depozitlar saqlanishi turiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- muddatli;
- yutuqli depozitlar;
- joriy raqamga quyiladigan mablag'lar
- plastik kartochkalar;
- depozit sertifikatlari (CD);

Jamg'arma depozitlar bank uchun afzal hisoblanadi. Chunki bu turdagi depozitlar asosan uzoq muddatli bo'ladi va bank bu mablag'larni uzoqmuddatli depozitga ishlatishi mumkin. Bu raqam bo'yicha mijozlarga to'lanadigan foiz stavkasi ham bo'ladi.

Jamg`arma depozitlarning kamchiligi shundaki - bu raqamda turgan mablag`lar kamayishiga har xil omillar kiradi. Masalan, davlatning siyosiy, iqtisodiy va psixologik omillar bankdan pulning chiqib ketishiga ta`sir qiladi. Shaxsiy hisobraqamlari ichiga kiradigan jamg`arma raqamlari jalb qilingan mablag` qatorida katta rol uynaydi.

Jamg`arma depozitlar:

- aniq muddatga qo`yilmaydi;
- bu hisobvaraqdan pul olish uchun bankka xabar berish shart emas;
- bu hisobvaraqga pul qo`yish yoki olishda jamg`arma kitobchasini ko`rsatish kerak. Bu kitobchada o`zgartirishlar aks ettiriladi.

Jamg`arma depozitlarini qabul qilish deyarli hamma tijorat banklar xizmatiga kiradi, maxsuslashgan tijorat banklar bundan mustasno bo`lishi mumkin.

Jamg`arma depozitlar ko`p banklar uchun mijozlarini moliyalashtirishni asosiy manbalari hisoblanadi. Tushum va rentabellik ma`nosida ham jamg`arma depozitlar eng samarali hisoblanadi.

Jamg`arma raqamlari egasiga foiz keltiradigan mablag`lar saqlanadi va uchinchi shaxsga hisob-kitob qilish uchun ishlatilmaydi. Jamg`arma schyotlarining xususiyati shundaki, bular qat`iy belgilangan muddatga ega emas. Bundan tashqari, jamg`arma depozitlar - bu pul depozitlaridir, shu sababli bular bank kapitalini jalb qilingan turiga kiradi. Umuman, ular ixtiyoriy summalarda qabul qilinadi. Jamg`arma depozitlar bir qo`yishda shakllanmaydi, ular har xil muddatlarda turli summalarda o`z muddati davomida qo`yilib yoki olinib turilishi mumkin.

Mijoz muddatli depozitlarni har doim ham erkin talab qila olmaydi. U mablag`larni tuliq yoki bir qismini talab qilsa ham bu mablag`lar muddatli majburiyatlarga bog`liq. Jamg`arma depozitlar jamg`arish yoki kapitalni yig`ish uchun xizmat qilishi kerak.

Jamg`arma depozitlari avvvaldan ogohlantirilib olinishi mumkin. Ular talab qilib olinadigan yoki muddatli depozitlar kabi rasmiylashtirilishi kerak emas. Ammo, bu ularni maqsadlilik va muddatlilik sifatini yo`q degani emas. Bu holda mijoz ogohlantirilishi muddatini kelishishi lozim, bu esa uni maqsadiga yetishiga



ko`maklashadi. Biroq, mijoz tahlil qilayotgan maqsadning depozitni ishlatish qolip qo`yilayotgan vaqtda uni muddatga joylashtiriladi degani emas, ya`ni mijoz mablag`ini joylashtirayotganda qachon mablag` olinishi mumkinligini aniqlashi mumkin bo`lsin.

## 1.2. Bank kapitali tarkibi

Tijorat banklarining tarkibi quyidagilarni o`z ichiga oladi<sup>11</sup>:

- o`z resurslari;
- jalb qilingan mablag`lari;
- emitentlashgan mablag`lar hisobidan shakllanadi.

Bu resurslar banklar tomonidan quyidagi passiv operatsiyalarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi:

- qimmatli qog`ozlarni muomalaga chiqarish yo`li bilan resurslar yig`ish;
- foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar sum-masini oshirish;
- boshqa kreditorlar mablag`larini jalb qilish;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirish.

Bu operatsiyalar bank balansining passiv qismida aks ettiriladi. N-mamlakatdagi tijorat banklarining resurslari quyidagilar bilan tavsiflanadi (1-jadval).

**1-jadval.**

### Tijorat banklarining kapitali

| <b>№</b> | <b>Ko`rsatkichlar</b>                         | <b>%</b>    |
|----------|-----------------------------------------------|-------------|
| 1        | 2                                             | 3           |
| 1.       | <b>Bankning o`z resurslari, shu jumladan:</b> | <b>12,2</b> |
|          | 1.1. Bankning fondi, shundan:                 | 6,1         |
|          | • Ustav fondi                                 | 2,6         |

<sup>11</sup> Yo.Abdullaev va boshqalar. Bank ishi. O`quv qo`llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010 yil. 100-bet..

|    |                                                           |             |
|----|-----------------------------------------------------------|-------------|
| 2. | <b>Foyda</b>                                              | <b>6,1</b>  |
| 3. | <b>Jalb qilingan resurslar</b>                            | <b>87,8</b> |
|    | 3.1 Talab qilib olgunga qadar qo'yiladigan depozitlar:    | 25,0        |
|    | • tijorat strukturalarning joriy schyotlardagi depozitlar | 15,5        |
|    | • korrespondent schyotdagi depozitlar                     | 1,6         |
|    | • hisob-kitobdagi resurslar                               | 2,2         |
|    | • turli kreditorlar                                       | 5,7         |
|    | 3.2 Muddatli depozitlar                                   | 23,5        |
|    | • tijorat strukturadagi depozitlar                        | 3,3         |
|    | • aholi omonatlari                                        | 1,6         |
|    | • bank depozitlari                                        | 18,6        |
|    | shu jumladan:                                             |             |
|    | MB depozitlari                                            | 13,2        |
|    | 3.3 Chet el operatsiyalar bo'yicha schyotlar              | 39,3        |

Ko'rinib turibdiki, tijorat banklari resurslarining asosiy manbasi - bu jalb qilingan resurslar bo'lib, ular bank resurslari tarkibida salkam 88 foizni tashkil qiladi. O'z resurslarining salmog'i 12 foiz bo'lib, jahon tijorat banklarining passivlari tarkibiy qismiga bo'lgan talabga javob beradi. Bankning o'z resurslari tarkibida ustav fondi 2,6 foizni tashkil qiladi. Jamg'arilgan resurslari tarkibida tijorat strukturadagi hisob va joriy schyotdagi depozitlar salmog'i 64 foizdan oshadi. Bankning o'z resurslari jumlasiga:

- bankning nizom kapitali;
- zahira kapitali;
- bankning oladigan foydasi hisobiga yuzaga keladigan boshqa jamg'armalar;
- sug'urta zahiralar;
- yil davomida taqsimlanmay qolgan foyda kiradi.

Bankning nizom kapitali (sarmoya) bank ishini tashkil etishning tayanch

nuqtasidir. Bu jamg'arma bank qatnashchilarining o'z mablag'lari hisobigagina yaratilishi mumkin, xolos, ya'ni ta'sischilarning pay badallari yig'indisidir.

Tijorat banklarining zahira kapitali aktiv operatsiyalarining chiqim-larini qoplash uchun mo'ljallangan. Ular olingan foyda yetmay qolgan vaqtda bank obligatsiyalari va imtiyozli aksiyalar dividendlari bo'yicha foizlarni to'lash manbayi bo'lib xizmat qiladi. U jamg'arma har yili foydadan ajratiladigan mablag'lar hisobiga shakllantiriladi.

Bank o'z mablag'larining alohida tarkibiy qismi bu aniq operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank tomonidan yaratilgan sug'urta zahiralaridir. Bularga birinchi galda qimmatli qog'ozlar mablag'larini ta'minlovchi zahiralar, shuningdek, ssudalar bo'yicha yo'qotishlar bo'lib qolganda ishlatiladigan zahiralar kiradi. Bunday zahiralar shakllantirish majburiy bo'lib, Markaziy bank tomonidan talab qilinadi.

Bank o'z mablag'larining eng muhim vazifasi bankning omonatchilar oldidagi majburiyatlarining ta'minoti bo'lib maydonga chiqishdir. Tijorat banklarining o'ziga xos tomoni shundaki, ular o'z mablag'larining miqdorini mustaqil suratda o'zlari belgilaydi va resurslarining juda ko'p qismi o'z mablag'lari hisobiga emas, balki zayom mablag'lari hisobiga shakllantiriladi. Banklarning mablag'larni jalb etish imkoniyati Markaziy bank tomonidan tartibga solib boriladi va bankning o'z sarmoyasi ham tashkiliy-huquqiy tuzilishiga qarab belgilanadi.

Odatda, Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning o'z mablag'lari bilan chetdan jalb qilingan resurslar o'rtasidagi chegarani belgilab beradi. O'zbekistonda bu nisbat 1:20 miqdorida belgilangan.

Bank kapitali deganda bankning barqaror faoliyatini ga'minlash va favqulodda sodir bo'ladigan zararlarni qoplash maqsadida maxsus tashkil qilinadigan fondlar va zahiralar tushuniladi. Bu kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ustav kapitali;
- zahira kapitali;

- umumiy zahiralar;
- maxsus zahiralar;
- oldingi va joriy yillardagi taqsimlanmagan va bank ixtiyoriga qol-gan foyda;
- riskni qoplash uchun tashkil qilingan zahira fondlar.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to‘lagan pul mablag‘laridan tashkil topib, uning summasi bank ustavida ko‘rsa-tiladi va bank ishini boshlashning boshlang‘ich, tayanch nuqtasi hisob-lanadi. Bankning tashkil qilinish shakliga qarab uning ustav kapitali ham turlicha bo‘lishi mumkin. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo‘lsa, u holda bank ustav kapitali yoki fondi aksi-yalar chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan tashkil topadi.

Banklarning aksioner kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin:

- o‘z aksioner kapitali. Bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hamda taqsimlanmagan foyda hisobidan;
- har xil ko‘zda tutilmagan xarajatlarni va to‘lanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan zahiralar hisobidan;
- bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) hisobidan.

Bankning ustav kapitali uning balans passivida ko‘rsatilib, summasi qonun bilan chegaralanmaydi. Ammo uning uchun eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Va bu eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro‘yxatga olish paytigacha to‘lanishi kerak.

Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun budjet mablag‘laridan foydalanish mumkin.

Bankning zahira kapitali – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng sof foyda hisobiga shakllangan zahiralar, ulardan bank faoliyatida ko‘zda tutilmagan turli zararlar hamda qimmatli qog‘ozlar kursining tushishi natijasida yo‘qotishlarni ular yuzaga kelishi bilan oq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi.

«Umumiy zahiralar» – bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir

faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun, lekin ayrim muayyan operatsiyalar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallanmagan zahiralar. Masalan, milliy valutani devalvatsiyalash uchun mo‘ljallangan zahiralar.


«Maxsus zahiralar» - «standart», «substandart», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarga qarshi zahiralar.

Taqsimlanmagan foyda – zahira fondiga ajratmalar va dividendlar to‘langanidan so‘ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Bank kapitali quyidagi funksiyalarni bajaradi (2-chizma).

2-chizma.

### **Bank kapitalining funksiyalari.**



O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘-risidagi Nizom»ga (1998-yil 2 – noyabr O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshqaruvida tasdiqlangan) binoan yangi ochilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi jadvalga muvofiq belgilanadi (2-jadval):

**O'zbekiston Respublikasida yangi ochilayotgan banklar ustav kapitalining  
eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablar.**


|                      | Aholisi 0,5 mln. kishidan ko'p bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun | Aholisi 0,5 mln. kishidan kam bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun | Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun | Xususiy banklar uchun               |
|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|-------------------------------------|
| 1998-yil 2-noyabrdan | 1,5 mln AQSh dollari ekvivalentida                                                     | 0,75 mln. AQSh dollari ekvivalentida                                                  | 5 mln. AQSh dollari ekvivalentida                       | 0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida |
| 1999-yil 2-noyabrdan | 25,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida                                                   | 1,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida                                                   | 5 mln. AQSh dollari ekvivalentida                       | 0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida |
| 2000-yil 2-noyabrdan | 2,5 mln. AQSh dollari ekvivalentida                                                    | 1,25 mln. AQSh dollari ekvivalentida                                                  | 5 mln. AQSh dollari ekvivalentida                       | 0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida |

Faoliyat ko'rsatayotgan banklar ekvivalenti 2 mln. AQSh dollaridan kam bo'lmagan summada umumiy kapitalga ega bo'lishi lozim. Faoliyat ko'rsatayotgan banklar ustav kapitalini oshirishga doir talablar makroiqtisodiy ahvol, bankning moliyaviy holati va boshqa sabablarga ko'ra alohida banklarga qo'yilishi mumkin.

Bank kapitali I va II darajali kapitallarga bo'linadi (3-chizma).

3-chizma.

**Bank kapitalining tarkibiy qismlari.**



I darajali kapital umumiy kapitalning 50 foizini yoki undan ko'pini tashkil qilishi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdoridan oshib ketsa, kapitalning oshib ketgan qismi kapital hisobiga kiritilmaydi.

I darajali kapital quyidagilardan iborat:

1. To'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar, nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar:

- muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
- egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;
- bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin, ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan dividendlar to'lanmaydi.

2. Qo'shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) – oddiy va imtiyozli aksiyalar narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi.

3. Taqsimlanmagan foyda.

4. Kapital zahiralar.

5. Avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi.

6. Joriy yil zararlari.

7. Aksiya egalari ozchiligining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

Dividend stavkalari o'zgarib turuvchi imtiyozli aksiyalar yuqoridagi shartlar bajarilishidan qat'iy nazar I darajali kapital hisobiga kiritilmaydi.

II darajali kapital esa quyidagilardan iborat:

- joriy yildagi sof foyda;
- riskni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zahiralar (I darajali kapital aktivlar hisob-kitobi quyida keltirilgan):
  - hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda

aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali tavsiflarini o'z ichiga olgan vositalar). I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

- to'liq to'langanligi;
- garov bilan ta'minlanmaganligi;
- bank tugatilganda ularga doir talablar, bank depozitorlari talablari qondirilgandan so'ng qondirilishi;
- aksiya egasining tashabbusi bilan va Markaziy bank ruxsatisiz to'lanmasligi;
- bankning barcha zararlarini qoplashi va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermasligi;
- agar bank oxirgi uch chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa, emitent xohishiga ko'ra yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar (foizlar) to'lash to'g'risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar) ni to'lash muddati kechiktiri-lishi mumkinligi;
- subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to'lash muddati yetib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 30%ga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:
  - garov ta'minotiga ega bo'lmaslik;
  - bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar talablari qondirilgandan so'ng amalga oshirilishi;
  - boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan ortiq bo'lishi.

Kapitaldan chegirmalar kapital yetarliligi koeffitsiyentlari hisoblan-guncha amalga oshiriladi. I darajali kapitaldan chegirmalar nomoddiy aktivlar, shu jumladan, **gudvilni** o'z ichiga oladi.

«Kapitalning yetarliligi» so'zi bank barqarorligiga berilgan umumiy bahoni



va bankning riskka bardoshlilik darajasini ifodalaydi. yetarlilik tamoyilining mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin: o'z kapitalning miqdori aktiv miqdoriga (riskni hisobga olgan holda) mu-tanosib bo'lishi kerak.

Kapitalning yetarliligi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi:

- riskka asoslangan kapitalning umumiy summasi (TAKUS) chegirmalarni hisobga olgan holda I darajali va II darajali kapital yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$TAKUS = I \text{ darajali kapital} + II \text{ darajali kapital} + \text{Chegirmalar}$$

- riskni hisobga olgan holda aktivlarning umumiy summasi (THOAUS) chegirmalar ajratilib, tavakkalchilik hisobga olingan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$RHOAUS = \text{Balansdagi aktivlar} + \text{Balansdan tashqari schyotlar} - \text{Chegirmalar}$$

- umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti ( $K_1$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_1 = \frac{TAKUS}{RH \text{ OHOA}}$$

$K_1$  ning ruxsat etilgan minimal darajasi 0,1 ga teng (10 foiz)

I darajali kapitalning yetarlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_2 = \frac{I \text{ darajali kapital}}{RH \text{ OHOA}}$$

$K_2$  ning ruxsat etilgan minimal darajasi 0,05 ga teng (5 foiz).

I darajali kapital tavakkalchilikka asoslangan umumiy kapitalning 50 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Kapitalning yetarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari nomoddiy aktivlar va gudvill chegirib tashlangan I darajali kapitalning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadigan Leveraj koeffitsiyentiga rioya

etishlari kerak:

$$\hat{E}_3 = \frac{\text{I darajali kapital}}{(\text{Umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{gudvil})}$$

Nomoddiy aktivlar – moddiy va jismoniy shaklga ega bo‘lmagan nomonetar, identifikatsiyalanadigan aktivlardir. Ularning ko‘p turlari mavjud, jumladan;

- dasturiy ta’minot;
- foydalanish huquqi;
- marketing;
- texnik ma’lumotlar.

Biroq, bank faoliyatida eng ko‘p tarqalgan nomoddiy aktiv gudvildir.

Gudvill – firmaning moddiy o‘lchov ta’siriga tushmaydigan sar-moyasi, masalan, obro‘-e’tibor, kasbiy omilkorlik aloqalari, marketing usullari va boshqalar. Boshqacha qilib aytganda, moddiy ishlab chiqarish doirasiga kirmaydigan sohalarda firma jamg‘argan aktiv-larining «narxi». Bu ibora mijozlarning xayrixohligi, iltifoti, moyilligini ham ifodalaydi. Gudvill sezilmaydigan asosiy kapital, sezilmaydigan aktivlar bo‘lib, umuman korxona bahosi bilan uning mavjud asosiy kapitali bahosi o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

Leveraj – bank jami aktivlarining kapital bilan ta’minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, u I darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

«Kuk koeffitsiyenti» – bank kapitalining balansdagi va balans orti aktivlari o‘rtasidagi minimal nisbatni belgilaydi. Uni hisoblashda mam-lakatlar bo‘yicha farqlanuvchi tavakkalchilik darajasi va normalari inobatga olinishi kerak. Bu koeffitsiyent 8% darajasida o‘rnatilgan bo‘lib, uning eng kamida yarmi bankning o‘z kapitaliga to‘g‘ri kelishi kerak.

### **1.3. Bank ustav kapitalini shakllantirish xususiyatlari**

Tijorat banklarining kapitali – bu ularning o'z sarmoyalari va jamg'armalari, shuningdek, banklar tomonidan passiv va aktiv amaliyotlarni o'tkazish natijasida jalb qilingan mablag'lar. Barcha jalb qilinayotgan mablag'lar tijorat banklarining vakillik hisobraqamlarida jamlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari kapitalini shakllantirishda ahamiyatli o'zgarishlar bo'ldi. So'ngi yillar davomida tijorat banklari kapitalini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'lishini taqozo etgan eng muhim omillar:

- ◆ banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishini ta'minlanishi. Bu kredit tavakkalchiligini mumkin qadar kamaytirishga yordam berdi.
- ◆ iqtisodiyotda to'lovsizliklar muammosining mavjudligi, bunda kreditlar qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklari ko'radigan zararlar miqdori oshadi.
- ◆ aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi (ya'ni iqtisodiyotning real sektoridan pul mablag'larining chiqib ketishi, bunda bank omonatlari miqdori ko'payishi kuzatilmaydi).
- ◆ korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Shu munosabat bilan mamlakat rahbariyati so'ngi vaqtda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bank tizimini yanada isloh qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, bank tizimining barqarorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1999 yildan boshlab tijorat banklari uchun o'z sarmoyalari shakllantirish talablarini o'rnatdi. Tavakkalchilikni cheklash hamda minimallashtirish maqsadida o'rtacha tavakkalchilikni hisobga olgan holda aktivlariga, umumiy aktivlariga nisbatan sarmoya yetarliligi (leverage), kredit amaliyotlari, qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bo'yicha amaliyotlar talablarini keskinlashtirdi. Qimmatli qog'ozlar bozori va uning maxsus infratuzilmasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan muayyan ishlar amalga oshirildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank passivlarini shakllantirish jarayoni, ularning tarkibini optimallashtirish va shu bilan bog'liq holda tijorat bankining resurs salohiyatini tashkil qiluvchi barcha pul mablag'lari manbalarini boshqarish sifati o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bank passivlari ikkita yirik guruhlarga bo'linadi:

- ◆ bank sarmoyasi va unga tenglashtirilgan moddalar,
- ◆ depozit va nodepozit shaklida jalb qilingan mablag'lar.

Yaqin vaqtlargacha passiv amaliyotlarga jiddiy ahamiyat berilmas edi, ular aktiv amaliyotlarga nisbatan ikkinchi darajali deb hisoblanar va bank tomonidan samarali boshqarishni talab etuvchi ob'ekt sifatida qabul qilinmas edi. Hozirgi sharoitda iqtisodiy dunyoqarash o'zgardi va sekin-asta bank faoliyatining asoslari va eng avvalo passiv amaliyotlarning tutgan o'rnini haqidagi tushunchalar yangicha ma'no kasb etmoqda. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantiruvchi passiv amaliyotlar o'z mohiyatiga ko'ra aktivlarga nisbatan birlamchi va hal qiluvchi vazifani o'taydi. Bozor munosabatlariga o'tish tijorat banklari kapitali tarkibiga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi.

Bank kapitali o'z sarmoyasi va qarzga olingan mablag'lardan iborat. Bankning o'z sarmoyasi – bank vaqtincha jalb qilgan qarz mablag'lardan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lardir. Bank sarmoyasining boshqa korxonalardan farqi shundan iboratki, bankning o'z sarmoyasi aylanma mablag'larining taxminan 10 foizini, korxonalarda esa taxminan 40-50 foizni tashkil qiladi. Solishtirma og'irligi uncha katta bo'lmaganligiga qaramasdan bankning o'z sarmoyasi bir nechta zarur funktsiyalarni bajaradi.

Muhofaza funktsiyasi. Sarmoya ko'zda tutilmagan yo'qotishlar vujudga kelgan hollarda bankka amaliyotlarni davom etish imkonini beradigan o'ziga xos amortizator vazifasini o'taydi. Bank sarmoyasining muhofaza vazifasi mavzusi bugungi kunda dolzarbdir. chunki bizning mamlakatimizda depozitlarni sug'urtalashning samarali tizimi yaratilganicha yo'q.. O'z sarmoyasining mavjudligi bank ishonchliligi va likvidliligining birinchi sharti hisoblanadi.

Operativ funktsiyasi. O`z sarmoyasi bankning moliyaviy kapitali manbasidir. Bu ayniqsa, ta`sischilar bir qator birinchi navbatdagi harajatlarni amalga oshirishlari zarur bo`lgan bank faoliyatining boshlang`ich bosqichlarida namoyon bo`ladi, chunki bank bu harajatlarsiz o`z faoliyatini boshlay olmaydi (asosiy vositalar va bank texnologiyalarini sotib olish, xodimlarga mehnat haqi to`lash va hkz).

Tartibga solish funktsiyasi. Bu vazifa bankning samarali faoliyat yuritishidan jamiyatning alohida manfaatdorligi hamda davlat organlariga amaliyotlar ustidan ma`lum nazorat o`rnatish imkonini beruvchi qonun va qoidalar bilan bog`liqdir. Amalda bu vazifa eng avvalo aktivlarni, xususan, kreditlarni oshirish bo`yicha bank faoliyatiga qo`yiladigan cheklashlarda namoyon bo`ladi.

Shuni aytib o`tish lozimki, yuqorida zikr etilgan vazifalarni bajarish uchun regulyativ sarmoyadan foydalaniladi. Markaziy bankning me`yoriy talablariga muvofiq sarmoya asosiy (birinchi daraja sarmoyasi) va qo`shimcha (ikkinchi daraja sarmoyasi) sarmoyalarga bo`linadi. Birinchi daraja sarmoyasi hisob-kitob sarmoyasi yig`indisining 50 foizidan kam bo`lmasligi kerak. Tartibga solish vazifasini asosan birinchi daraja sarmoyasi bajaradi, chunki u doimiyroq deb hisoblanadi.

Bankning o`z mablag`lari uning faoliyati asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilinayotgan depozitlar, ya`ni real kredit kapitali hajmini va pirovard natijada aktiv amaliyotlar hajmini belgilab berishadi. Bankning o`z mablag`lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma`lumot manbai hisoblanadi.

Bank sarmoyasi uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aktsiyadorlar va qolaversa, bankning o`zi uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko`rsatib beradi.

O`z kapitali sifatida, eng avvalo, qimmatli qog`ozlar bozorida joylashtirilgan bank aktsiyalari hisobiga vujudga kelgan aktsiyadorlar va rezerv sarmoyalari, shuningdek, banklar nizomiga muvofiq foydadan ajratmalar yo`li bilan vujudga keltiriladigan maxsus jamg`armalar hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga binoan resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga, o'z sarmoyasidan tashqari, qo'yidagilar kiradi:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisobraqamlaridagi qoldiqlar.
2. Bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlari.
3. Olingan banklararo kreditlar.
4. Bank-vakil tomonidan ochilgan "loro" depozit va valyuta hisobraqamlardagi qoldiqlar va boshqa manbalar.

Aktiv amaliyotlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarning katta qismini bank jalb qilingan mablag'lar hisobidan qoplaydi. An'anaviy ravishda, bu mablag'larning asosiy qismini depozitlar, ya'ni barcha turdagi mulkchilik shakliga mansub mizojlar tomonidan bankka qo'yilgan pullar tashkil qiladi.

Depozitlar muddatiga, qo'yish va olish shartlariga, to'lanadigan foiz miqdoriga, bank bilan amalga oshiriladigan aktiv amaliyotlar bo'yicha imtiyozlar olish imkoniyatiga va boshqa bir qator tavsiflarga qarab farqlanadi.

Muddatiga ko'ra depozitlar talab qilingunicha (ya'ni omonatchining oldindan ogohlantirmasdan turib qilingan birinchi talabiga ko'ra to'lab beriladigan depozitlar) va muddatli depozitlarga (hisobraqamga pul qo'yilganidan keyin ma'lum vaqt o'tgach to'lab beriladigan depozitlar) bo'linadi. Banklar uchun talab qilingunicha sharti bilan qo'yiladigan depozitlarning asosiy yaxshi xususiyati ularning yuqori likvidliligi va ulardan bevosita to'lov vositasi sifatida foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Omonatchilar uchun esa ularning asosiy kamchiligi – mazkur hisobraqam bo'yicha foizlar to'lanmasligi yoki kam to'lanishidir. Ko'p sonli mijozlar bo'yicha yoyilganligini e'tiborga olgan holda bu depozitlar bank uchun tavakkalchiligi kam, demak boshqalariga nisbatan barqarorroq hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" Qonuni hamda Markaziy bankning me'yoriy ko'rsatmalariga muvofiq tijorat banklari depozitlarga jalb qilingan mablag'larning

20 foizini har oyda majburiy zahira jamg`armasiga o`tkazishlari shart, bu bilan esa ularning kredit salohiyati va oladigan daromadlari miqdori kamayadi.

Talab qilingunicha qo`yiladigan omonatlar eng yuqori aylanish tezligiga ega, ba`zida ular yil davomida 30 va hatto 50 marotaba aylanadi. Bundan kelib chiqadiki, talab qilingunicha qo`yilgan omonatlar markazidan katta miqdordagi mablag`lar (taxminan o`rnatilgan majburiy zahiralar me`yoridan 1% ga ko`p) birlamchi zahiralariga yo`naltiriladi, talab qilingunicha qo`yilgan omonatlarning qolgan qismi qisqa muddatli davlat qimmatli qog`ozlariga yo`naltirish orqali ikkilamchi zahiralariga joylashtiriladi, va nisbatan katta bo`lmagan mablag`lar qarz berishga, asosan qisqa muddatli tijorat kreditlarini berishga yo`naltiriladi.

Omonatchiga qarab, odatda, quyidagi turdagi hisobraqamlar mavjud: jismoniy shaxslarning hisobraqamlari, korporatsiyalar va korporativlashmagan firmalarning hisobraqamlari, markaziy hukumatning hisobraqamlari, mahalliy boshqaruv organlarining hisobraqamlari, moliyaviy muassasalarning hisobraqamlari, xorijiy investorlarning hisobraqamlari.

So`ngi vaqtlarda ayrim toifadagi depozitlar o`rtasidagi aniq chegaralar yo`qolib, bir nechta turdagi depozitlarning, masalan, talab qilingunicha qo`yilgan depozitlar va muddatli omonatlarning xususiyatlarini o`zida jamlovchi “gibrid” depozitlar paydo bo`lmoqda. Tegishli ravishda depozitlarning tasniflanishi o`zgarmoqda. Masalan, AQSH bank statistikasida transaksion yoki chek hisobraqamlari toifasi joriy etilgan, bu hisobraqamlar bo`yicha chek yoki shunga o`xshash boshqa to`lov instrumentlari yozib berilishi mumkin va tegishli ravishda uchinchi shaxslarning foydasiga to`lovlar amalga oshirilishi mumkin. Bunday hisobraqamlarning solishtirma og`irligi uncha katta emas. Avval to`lovlar faqat talab qilingunicha sharti bilan ochilgan hisobraqamlar orqali amalga oshirilardi. Endilikda esa, talab qilingunicha sharti bilan ochilgan hisobraqamlar bo`yicha foiz to`lash ta`qiqlanganligi oqibatida ular qatoriga nau-hisobraqamlar va ba`zi boshqa hisobraqamlar kelib qo`shildi. Nau-hisobraqamlar bu depozit hisobraqamlari bo`lib, ular bo`yicha cheklarga o`xshash hisob-kitob traktatlarini yozib berish

mumkin. Asosiy tamoyili likvidlilik va foiz ko`rinishidagi daromad olishning bir-biriga hamohangligidan iborat.

Muddatli jamg`arma omonatlari ham sezilarli darajada farqlanishlarga majbur bo`ldi, bunda turli xildagi omonatchilar uchun mo`ljallangan turli xil shakllar ajrab chiqdi.

Yaqin vaqtlargacha O`zbekistonda aholining bo`sh mablag`larini jalb qilish ishlarini asosan Xalq banki amalga oshirar edi.

Prezidentning 2000 yil 21 martdagi Farmoni chiqishi bilan tijorat banklari aholining bo`sh mablag`larini jalb qilish bo`yicha ishlarni faollashtirib yuborishdi. Bu farmonda jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari o`sisiga qarab banklar daromadini imtiyozli soliqqa tortish hamda foiz miqdorlarini oshirish ko`zda tutilgan.

Keng ko`lamdagi omonatlarni jalb qilish bo`yicha asosiy instrumentlar ularning xilma-xilligi va omonatlarning oshishiga qarab ko`payadigan foiz miqdorlaridir.

Xalqaro andozalarga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishning yangi hisobraqamlar Rejasiga o`tish munosabati bilan depozitlarni ularning turlariga ko`ra (talab qilingunicha, jamg`arma, muddatli) tasniflash amalga oshirildi, bu esa o`z navbatida depozitlarni muddatlar bo`yicha jalb qilish ustidan monitoringni kuchaytirish va ularni diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratdi.

Depozitlar bilan ishlash bo`yicha amaldagi tajribaning asosiy kamchiligi depozitlarni sug`urtalash mexanizmining yo`qligi va shuningdek, inflyatsiya darajasi o`sishi bilan ularni indeksatsiya qilinmasligidan iborat. Bu esa aholi pul mablag`larining oqimini to`xtatib turibdi.

Depozit hisobraqamlarini yuritish bilan bir vaqtning o`zida tijorat banklari pul sarmoyalarini jalb qilishning pul bozorlaridan qarz olish kabi boshqa usullarini ham tez-tez qo`llab turishadi. Ushbu amaliyotlarning asosiy maqsadi – bank likvidlili darajasini yaxshilashdir. Bank buning uchun zarur bo`lgan mablag`larni turli yo`llar bilan topishi mumkin:

- ◆ mahalliy yoki xorijiy fond bozorlaridan qarz olish yo`li orqali.



- ◆ mijozlarga o`tkazma depozit sertifikatlarini sotish orqali.
- ◆ vaqtincha ortiqcha mablag`ga ega xususiy shaxs yoki muassasalar bilan qayta sotib olish to`g`risida bitimlar tuzish orqali.
- ◆ aynan shu bank xolding kompaniyasining tuzilmasi hisoblangan filial orqali tijorat qog`ozlari (veksellar) ni muomalaga chiqarish yo`li bilan.

Bank kapitali nodepozit manbalarining depozitlardan farqi shundan iboratki, birinchidan, ular noshaxsiy tavsifga ega, ya`ni bankning aniq bir mijozi bilan bog`lanmagan, balki, bozorda raqobatchilik asosida vositachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi, ikkinchidan esa, bu mablag`larni sotib olish g`oyasi bankning o`ziga tegishli, vaholangki, depozitlarga mablag` qo`yish g`oyasi omonatchiga tegishli bo`ladi.

Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozorlari mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo`lgan yirik banklar keng foydalanishadi. Undan tashqari, bunday banklarda aktiv amaliyotlarni amalga oshirish uchun doimiy ravishda mablag` tanqisligi mavjud va ular likvidlilikni ta`minlash uchun kuchli siyosat yuritishlari zarur. Odatda, nodepozit mablag`lar yirik miqdorlarda sotib olinadi va ular ulgurji tavsifga ega amaliyotlar hisoblanadi. Bunday tushuncha, masalan, Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSHda qabul qilingan.

Jalb qilingan rusurslarning tarkibida Markaziy bankdan olingan qarz mablag`larining solishtirma og`irligi kattadir. Hozirgi vaqtda O`zbekiston bank tizimida davlat zahira banki (O`RMB) dan olinadigan kreditlarning uchta asosiy turi mavjud:

- ◆ bir necha kunlarda qaytarish muddati bilan olinadigan qisqa muddatli kreditlar, bu kreditlar bank tomonidan zahira talablarini bajarishda tezkor moliyaviy yordam sifatida qo`llaniladi,
- ◆ mavsumiy kreditlar, bunday kreditlar nisbatan uzoqroq muddatga omonatlar va qarzlar harakatida tebranishlarni boshidan kechirayotgan banklarga (masalan, ekin yoki yig`im-terim paytida qishloq xo`jaligi banklariga) beriladi,

◆ uzoq muddatli kreditlar, bunday kreditlar uzoq muddatli mablag`larni shakllantirishda qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan banklarga (masalan, iqtisodiyot pasayishi bilan bog`liq hollarda) beriladi.

Shu bilan birga, kredit kapitali banklararo bozorda boshqa banklardan ham sotib olinadi. Undan tashqari, resurslar manbai sifatida nobyudjet jamg`armalar – Biznes fond, Dehqon-fermer xo`jaliklari Assotsiatsiyasi, Bandlik fondidan olinadigan qarzlardan ham foydalaniladi va bu mablag`lar imtiyozli asoslarda kichik, o`rta va xususiy tadbirkorlarga kredit berishda ishlatiladi.

So`nggi vaqtlarda banklarning kredit salohiyatida xorijiy banklardan kredit liniyalarini ochish yo`li bilan olinadigan resurslar vujudga kelmoqda. Depozitlarning yangi turi - o`tkazma depozit sertifikatlarini rivojlanishi bilan bank depozitlari o`sishini qo`llab-quvvatlash maqsadida yuritilayotgan passivlar va qisqa muddatli qarzlarni boshqarish kontseptsiyasi yangi kuch oldi.

Kredit kapitali bozori vujudga kelishi bilan bir vaqtda qimmatli qog`ozlar bozori ham shakllandi. Banklar bank faoliyatining yangi shakllari bo`lmish qimmatli qog`ozlar bilan o`tkaziladigan, lizing, faktoring va boshqa amaliyotlar bilan shug`ullana boshlashdi. Bu shunga olib keldiki, endilikda bank kapitali tarkibiga nafaqat pul mablag`lari, balki tovar-moddiy boyliklar va qimmatli qog`ozlar kirishi mumkin.

Jalb qilingan resurslar yig`indisi bankning real va salohiyatli majburiyatlarini tashkil qiladi. Real majburiyatlar bank balansida talab qilingunicha depozitlar, muddatli depozitlar, jalb qilingan banklararo kredit mablag`lari ko`rinishida aks ettiriladi. Salohiyatli yoki balansdan tashqari majburiyatlar bank tomonidan berilgan kafolatlarda, mijozlarga ochilgan kredit liniyalarida namoyon bo`ladi.

Majburiyatlarni bajarish uchun mablag` manbalari bo`lib kassa va vakillik hisobraqamlardagi pul qoldiqlari ko`rinishidagi pul mablag`lari, tezda pulga aylantirilishi mumkin bo`lgan aktivlar, zarurat tug`ilganda banklararo bozordan yoki Markaziy bankdan olish mumkin bo`lgan banklararo kreditlar xizmat qiladi.

Shunga e`tibor berish kerakki, bank kapitali tushunchasi kredit kapitali tushunchasiga nisbatan kengroqdir, chunki birinchisi nafaqat kredit berish uchun,

balki, bankning boshqa aktiv yoki komission amaliyotlarini moliyalashtirish va amalga oshirish uchun ishlatiladi. Ularni shakllantirish usullari bir xil, biroq bu tushunchalarni farqlashda tafovutlar mavjud.

Markaziy bankning tijorat banklari kapitalini shakllantirish to'g'risidagi ko'rsatmalari bekor qilinganidan so'ng, ular kredit salohiyati tarkibini mustaqil ravishda belgilaydilar. Tadqiq qilinayotgan bankning kredit kapitali tarkibi va ularni belgilash tartibi ikkinchi bobda keltirilgan.

Resurs bazasining barqarorligi mustahkam sarmoya manbai, aktivlarning sifati, depozitlarning sifati, tashqi manbalarga imkoniyat darajasidagi qaramligi, aktivlar va passivlarning muddatlar bo'yicha muvofiqligi, saviyali kuchli boshqaruv, yuqori darajali bank obro'si bilan ta'minlanadi.

Bank resurs salohiyatining ishonchliligi va uning majburiyatlar bo'yicha to'lov qobiliyati resurs bazasining barqarorligiga bog'liq.

Inflyatsiya darajasi kamayishi, aholi jamg'armalarini jalb qilish bo'yicha tijorat banklari faoliyatining kengaytirilishi, kredit tavakkalchiligining qisqarishi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan amaliyotlarni rivojlanishi keyinchalik zahira me'yorlarini kamaytirish imkoniyatini ta'minlab beradi. Bu esa, bankning moliyaviy vositachilik operatsiyalarini rivojlanishiga, iqtisodiyotning real sektoriga qilinayotgan investitsiyalarning o'sishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari faoliyatining ko'lamlari va shu bilan birga ular oladigan daromad miqdorlari ham endilikda banklar qarz kapitali bozoridan sotib oladigan resurslar miqdoriga chambarchas bog'liqdir.

Resurs bazasini shakllantirishda aktivlar qiymatini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bank ishida aktivlarni baholash bo'yicha, odatda, bir nechta qiymat turlari qo'llaniladi, lekin eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilar:

- ◆ balans qiymati,
- ◆ bozor qiymati,
- ◆ tugatish qiymati.

Balans yoki buxgalteriya qiymati baholanayotgan ob'ektning o'tgan ma'lum bir sanaga bo'lgan moliyaviy holatini aks ettiradi. Balans qiymatining kamchiligi

shundan iboratki, u nomoddiy aktivlarni, tugallanmagan ishlarni, aktivlarning real qiymatini hisobga olmaydi.

Hisob yuritish bo'yicha amaldagi qonunchilikka ("Buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risidagi" Qonun) muvofiq bank aktivlari eskirish qiymatini chegirib tashlagan holda olinadigan balans qiymati bo'yicha baholanadi. Agar tijorat banklari bozor qiymati turlaridan birini, masalan, "faoliyat ko'rsatayotgan sub'ekt qiymati"ni (bunda, qiymat aktivlar (majburiyatlar)ning ma'lum vaqt oralig'ida foyda keltirish imkoniyati bilan aniqlanadi) qo'llashganida edi, bu holda aktivlar o'tgan faoliyat natijasi va bo'lajak daromadlar manbai bo'lgan resurslar sifatida hisobga olinar edi.

Passivlar majburiyatlar kabi hozirgi zamonda mavjud bo'lib, o'tgan hodisalar natijasida vujudga keladi va ular bo'yicha to'lovlar bankning iqtisodiy foydasi uchun muhimligi bilan aniqlanadi.

O'z sarmoyasining bozor qiymati oddiy va imtiyozli aktsiyalarning sof ko'rinishdagi daromadi emas, balki, bank aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi muayyan vaqtga olingan tafovut sifatida o'lchanadi.

## **2-bob. Tijorat banklari kapitalini shakllantirishga talablar**

### **2.1. Bank kapitali shakllantirilishi bo'yicha normativ talablar**

O'zbekiston Respublikasining amaldagi bank nazoratiga tegishli me'yoriy hujjatlar Jahon bankining O'zbekiston respublikasi bank tizimini isloh qilish loyihasi bo'yicha ishlagan chet ellik maslahatchilar ko'magida yaratilgan bo'lib, xalqaro andozalarga moslashtirilgandir.

Jumladan, bank sarmoyasiga bo'lgan talablar yuqori riskli bank aktivlarini chegaralashi bank majburiyatlarining o'z o'zidan chegaralanishiga olib kelishini nazarda tutib, bank sarmoyasining bank majburiyatlariga nisbati ko'rsatkichi bekor qilindi.

Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar bo'yicha iqtisodiy me'yorlarni ko'rib chiqishdan oldin ayrim tushunchalarga izoh berib o'tish maqsadga muvafiqdir.

"Bank talablari" - bank tomonidan joylashtirilgan barcha qo'yilmalari, masalan, bank tomonidan berilgan kreditlar va boshqalar.

"Kalital zahiralar" — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zahiralar. Ushbu zahiralariga ajratiladigan chegirmalar miqdori ochib e'lon qilinadigan hisobotda ko'rsatilishi lozim. Zahiralaridan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi. Bunda mazkur zahiralar hisobiga qoplanadigan barcha zararlar foyda va zararlar hisobotida aks ettirilishi kerak.

"Umumiy zahiralar" - bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun, lekin ayrim muayyan operatsiyalar bo'yicha zararlarni qoplashga zahiralar yaratish mo'ljallanmagan. Masalan, "yaxshi" kreditlarga doir zararlarni qoplash yoki milliy valyutani deval vatsiyalash uchun mo'ljallangan zahiralar.

"Maxsus zahiralar" - "standart", "substandart", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zahiralar.

"Nomoddiy aktivlar" - moddiy va jismoniy shaklga ega bo'lmagan nomonetar, identifikatsiyalanadigan aktivlar. Nomoddiy aktivlarning juda ko'p turlari mavjud, jumladai, dasturiy ta'minot, foydalanish xuquqi, marketing va texnik ma'lumotlar. Biroq, bank faoliyatida eng ko'p tarqalgan nomoddiy aktiv gudvildir.

"Gudvill" - xaridor tomonidan bank sotib olinayotganda uning sof aktivlari qiymatidan yuqori to'lanadigan summa sifatida ta'riflanadi (barcha aktivlarning bozor narxi va barcha majburiyatlarning bozor narxi o'rtasidagi farq). Bu xaridorning bankni sotib olishda bankni xarid qilish o'z ichiga bank ham qarzdor, ham depozitor bo'lgan mijozlar bilan ko'p yillardan beri o'rnatgan munosabatlari ham kirishini tushunib yetishini anglatadi.

Leveraj - bu bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. U birinchi darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan, gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Likvidlik —bu bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni bildiradi.

Doimiy bo'lmagan majburiyatlar istalgan vaqtda bankdan chiqib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan yirik depozitlar qarzlardir. Bunday majburiyatlarga odatda quyidagilar xosdir:

- nisbatan katta miqdorda bo'lishi; so'ndirish muddatining qisqaligi;
- majburiyatlar egalari bank bilan mazkur majburiyatlardan boshqa hech qanday bitimlar bilan bog'lanmagan bo'ladi.

Zahiralarning ortiqcha qismi - majburiy zahiralar fondiga ajratmalar miqdoridan oshadigan bank mablag`lari - bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag`idagi mablag`lar qoldig`i.

Likvid aktivlar - ularning yaxshi ma`lum bo`lgan bozor narxini shakllanishini ta`minlaydigan doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktyvlarning alohida turi bo`lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo`lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa mudtsatli (etti kungacha) banklararo kreditlar. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan davlatlarining mashhur trans milliy kompaniyalarining qimmatli qog`ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.

Nolikvid aktivlar - bu bozor narxini kotirovka bo`yicha aniqlash mumkin bo`lmagan va bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o`rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytiladi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o`zgarishlarga uchrab turipsh taqqoslashni qiyinlashtiradi. Bu turdagi aktivlarga, masalan, kreditlar,

Qimmatli qog`ozlar bozorida kotirovkaga ega bo`lmagan yeki kotirovkasi qiyin bo`lgan qimmatli qog`ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zarur bo`lgan holda bank ularni zarar ko`rgani holda sotishi mumkin.

Faoliyat ko`rsatayotgan banklar ekvivalenti 2 mln. AQSH dollaridan kam bo`lmagan summada umumiy kapitalga ega bo`lishlari lozim. Faoliyat ko`rsatayotgan banklar ustav kapitalini oshirishga doir talablar makroiqtisodiy ahvol, bankning moliyaviy holati va boshqa sabablarga ko`ra alohida banklarga qo`yilishi mumkin.

Tijorat banklari umumiy kapitali 1-darajali kapital va II-darajali kapitaldan tashkil topgan. 1-darajali kapital umumiy kapitalnmng 50 foizini yoki undan ko`pini tashkil qilishi lozim. 2-darajali kapital miqdori I-darajali kapital miqdoridan oshib ketsa, kapitalning oshib ketgan qismi kapital hisobiga kiritilmaydi. I-darajali kapital quyidagilardan iborat :

- a) To'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aktsiyalar,
- b) nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aktsiyalar. Bu aktsiyalar:

- muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
- egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;
- bank aktsiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin;
- ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan dividendlar to'lanmaydi;

v) qo'shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) - oddiy va imtiyozli aktsiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;

g) taqsimlanmagan foyda:

- kapital zahiralar;
- avvalgi yillar taqsimlanmagan foydasi;
- joriy yil zararlari.

d) aktsiya egalari kamchiligining birlashgan korxonalar aktsiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

Dividend stavkalari o'zgarib turuvchi imtiyozli aktsiyalar I-darajali kapital hisobiga kiritilmaydi.

II- darajali kapital quyidagilardan iborat:

a) joriy yildagi sof foyda;

b) riskni hisobga olgan holda aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so'ng 1-darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zahiralar (1-darajali kapital va aktivlar hisob-kitoblardan so'ng I- darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zahiralar (1- darajali kapital va aktivlar hisob-kitobi quyida keltirilgan);

v) hisob kitoblardan so'ng I- darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aktsiyadorlik va qarz kapitali tavsiflarini o'zichiga olgan vositalar);



g) subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo`lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so`ng 1-darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. 2-darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to`lash muddati yetib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 30 foizga kamayib borishi shart.

2-darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- garov ta`minotiga ega bo`lmaslik;
- bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo`yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so`ng amalga oshirilishi;
- boshlang`ich to`lov muddati 5 yildan ortiq bo`lishi kapitaldan chegirmalar kapital yetarliligi koeffitsientlari
- hisoblanguncha amalga oshirilishi kerak.

1-darajali kapitaldan chegirmalar nomoddiy aktivlar, shu jumladan, Gudvillni o`z ichiga oladi.

Umumiy kapitaldan chegirmalar quyidagilardan iborat:

- birlashmagan nobank sho`ba moliya korxonalari kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil qiluvchi ularning har qanday aktsiyalari va qarz majburiyatlari;
- birlashmagan nobank nomoliyaviy korxonalar kapitaliga investiyalar, jumladan bunday korxonalar kapitalini tashkil qiluvchi har qanday qimmatli qog`ozlar va qarz majburiyatlari;
- birlashmagan banklar kapitalining har qanday vositasiga investitsiyalar.

## **2.2. Bazel-3 qoidalari va ularning O`zbekistonda qo`llash imkoniyatlari**

O`zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini ta`minlash, banklar kapitali barqarorligi va iqtisodiyotning yuqori o`sish sur`atlarini rag`batlantirishga qaratilgan quyidagi qator muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu chora va quyidagilardan iborat:

\*xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda bank nazoratini takomillashtirish, tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudentsial nazoratning rolini oshirish;

\*banklarning kapitallashuvini, aktivlari sifatini, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklarni, jumladan kredit tavakkalchiligini boshqarishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish;

\*aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish;

iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish, kichik biznesni moliyaviy qullab-quvvatlashni faollashtirish;

\* tijorat banklarida hisob va hisobotni yuritishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy etish, ularning sifati va ochiqqligini ta'minlash;

\*respublika tijorat banklari va moliya-bank tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularning bajarilishiga erishish borasida tegishli ishlar olib boriladi.

2012 yilda bank tizimini yanada mustahkamlash maqsadida xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan moliya institutlarini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilishni ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmui ishlab chiqiladi. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga hizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Shu bilan bir qatorda, 2011 yilda kredit tashkilotlarining huquqiy bazasini mustahkamlash va ular faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator qonunchilik hujjatlarini, jumladan, «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida»gi, «Garov reestri to'g'risida»gi qonunlar loyihasini ishlab chiqish mo'ljallangan.

Bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish, bank tizimini instituttsional rivojlantirish borasida:

\*joylarda o'tkaziladigan tekshiruvlar natijalari bo'yicha tijorat banklari:

a) kapitalining yetarlilik darajasi;

b) aktivlarining sifati;

v) boshqaruv tizimining sifati;

g) likvidligi; d)daromadliligi hamda

e) bozor xavf-xatarlariga nisbatan barqarorligini baholashning takomillashtirilgan tizimi (CAMELS) ni bosqichma-bosqich joriy etish;

\* turli makroiqtisodiy vaziyatlar, xususan, jahon iqtisodiyotida sodir bulishi mumkin bo'lgan stress holatlarning bank tizimiga ta'sirini «stsenariy tahlil» usulida o'rganishni bank nazorati amaliyotiga joriy etish;

\* jahon moliyaviy inqirozi sabablarini chuqur o'rgangan holda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilayotgan bank nazoratining takomillashtirilgan tizimi — «Bazel III» ni bosqichma-bosqich tadbiq etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar majmui ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

«Bazel III» tizimi, avvalgi tizimlardan farqli o'laroq, kutilayotgan ehtimoliy yo'qotishlar uchun rezervlar shakllantirishni, shu asosda, banklarda barqarorlashtirish jamg'armasini tashkil etishni, shuningdek, kapitalning yetarlilik va likvidlik darajasi mezonlarini kuchaytirishni ko'zda tutadi.

Bank Kengashini bank faoli-yatini boshqarishdagi rolini kuchaytirish, xususan, bank Kengashlari tarkibiga betaraf a'zolari kiritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Banklar aktivlari va kredit portfeli sifatini oshirish, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklarni, jumladan kredit tavakkalchiligini boshqarishni takomillashtirish borasida:

\*bank operatsiyalarini o'tkazishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini aniqlash

bo'yicha me'yoriy hujjatlar va uslubiy tavsiyalarni takomillashtirish;

\*kreditlar ajratish borasida qarorlar qabul qilishda banklarning kredit qo`mitalari va mas`ul xodimlarining javobgarligini oshirish;

\*kreditlardan foydalanish va qaytarilishi monitoringining mexanizmlarini birxillashtirish, ular bo`yicha tavakkalchiliklarni o`z vaqtida aniqlash, sifatli baholash va bartaraf etish, shuningdek, kreditlar bo`yicha muammoln qarzdorliklarni paydo bo`lishining oldini oluvchi choralar tizimini ishlab chiqish;

\*kredit tashkilotlari va ularning filiallari faoliyatini tartibga solishda ichki nazorat tizimining rolini kuchaytirish maqsadida amaldagi me`yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

\*xalqaro moliya bozoridagi yirik banklar tajribasidan kelib chiqib, tijorat banklarida mijozlarning kredit tarixi va moliyaviy ko`rsatkichlariga tegishli baho berish orqali tahlil qilish uslubiyoti — «skoring-tahlil»ni keng joriy etish;

\*tijorat banklari tomonidan xo`jalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan birgalikda investitsion loyihalarni va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish bo`yicha injiniring kompaniyalari faoliyatini jadallashtirish;

\*tijorat banklarida investitsion loyihalarni ekspertiza qilishda jarayonlar shaffofligini oshirish, xususan, loyihalarni amalga oshirishga ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan barcha omillar va tavakkalchiliklarning hisobga olinishini ta`minlash chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Banklarning resurs bazasini yanada mustahkamlash, bank xizmatlarining sifatini oshirish va yangi turlarini joriy etish orqali aholi va xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning bo`sh pul mablag`larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilish hajmlarini oshirib borish vazifalari doirasida:

\*banklar jami kapitalini yil mobaynida kamida 20 foizga o`sishini ta`minlash;

\*bank xizmatlari sifatini oshirish va turlarini kengaytirish hamda bank tizimiga bulgan ishonchni yanada oshirish orqali aholi va xo`jalik sub`ektlarining banklardagi depozitlari hajmini kamida 30 foizga oshirilishini ta`minlash;

\* aholi va xo`jalik sub`ektlarining ehtiyojlarini inobatga olgan holda omonatlar va depozitlarning yangi turlarini taklif etish, jumladan, uzoq muddatli

obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish, subordinar qarzlar amaliyotini yanada kengaytirish;

- \* zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangi bank xizmati turlarini jumladan, internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yish bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotga yo'naltiril-gan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsion jarayonlardagi ishtirokini yanada kengay-tirish borasida:

- \* iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha investitsion loyihalarni, jumladan hududlarni rivojlantirish dasturlariga kiritilgan loyihalarni kreditlash hajmlarini yil mobaynida 30 foizga ko'paytirish;

- \* investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- \* O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshida tijorat banklari bilan hamkorlikda investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasini tashkil qilish;

- \* tijorat banklarining ustav kapitaliga yunaltirilgan maqsadli mablag'lar hisobidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini imtiyozli kreditlash buyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni davom ettirish;

- \* «Inqirozga qarshi choralar dasturi»da 2012 yil uchun belgilangan chora-tadbirlarni to'liq amalga oshirish, xususan:

- to'lanmay qolgan qarzlar tufayli banklarning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ishlab chiqarish faoliyatini tiklash, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish hamda ularni yangi investorlarga sotish bilan bog'liq ishlarni davom ettirish;

- barqaror eksport salohiyatiga ega korxonalarni imtiyozli kreditlar ajratish yo'li bilan moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

- aholiga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovarlari, jumladan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishlari uchun iste'mol kreditlari

berish ko'lam-larini kengaytirishga doir ishlar amalga oshiriladi.

Respublika tijorat banklari va bank-moliya tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularga erishish borasida:

\* respublika tijorat banklari tomonidan «Fitch reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari reyting baholari, jumladan, kreditga layoqatlilik reyting baholarining olinishi va muntazam yangilanib borilishini ta'minlash;

\* respublika tijorat banklari va bank-moliya tizimi faoliyatini baholashning yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va standartlariga mos keluvchi takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ular asosida respublika tijorat banklari faoliyatini muntazam baholab borish;

\*tijorat banklari va bank-moliya tizimi faoliyatini baholashda yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro me'yorlar, mezonlar va andozalar to'g'risida o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish borasida tizimli ishlar olib boriladi.

2012 yilda bank tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, bank hisobotini xalqaro andozalar va tamoyillarga muvofiqlashtirish, ularning me'yoriy bazasini yanada takomillashtirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish maqsadida, banklar Kengashlari tarkibiga minoritar aksiyadorlar manfaatlarini ifoda etuvchi a'zolari kiritish hamda yirik summadagi (umumiy kapitalning 15 foizi va undan yuqori miqdordagi) bitimlarini tuzish va ular bo'yicha to'lov muddatini uzaytirish to'g'risidagi qarorlarni bank Kengashi tomonidan ma'qullanish mexanizmlari joriy qilindi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan qarz oluvchilarning moliyaviy holatini aniqlash uchun skoring-tahlil qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi va ushbu tahlilni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

“Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom va “Tijorat banklarining moliyaviy holati va barqarorligini baholash hamda ularning natijalarini ko‘rib chiqish tartibi” qabul qilindi. Har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo‘ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish Qo‘mitalari tashkil etildi.

“Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalarini joriy qilish uchun xalqaro moliya institutlaridan texnik yordam va ekspertlarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar” majmuasiga muvofiq, respublika banklarida buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga muvofiqlashtirishning 3-bosqichini amalga oshirish borasida Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, Jahon banki tomonidan ko‘rsatilayotgan texnik yordam doirasida, bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining Bazel-2 va Bazel-3 tavsiyalarini mamlakatimiz bank tizimiga joriy qilish loyihasi bo‘yicha xalqaro hamkorlik yanada kuchaytirilib, 2012 yilning iyul oyida tegishli loyiha amalga oshirilishi boshlandi.

Xalqaro valyuta fondining etakchi tahlilchilari ishtirokida Markaziy bank va tijorat banklari xodimlari uchun “Banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini aniqlash uchun stress-test o‘tkazish” hamda Germaniyaning Doyche Bundesbanki tomonidan “Bank nazoratini takomillashtirish” mavzularida seminarlar tashkil etildi.

Xalqaro reyting baholash uslubiyoti me‘yor, mezon va standartlarni respublika tijorat banklari va moliya-bank tizimi faoliyatini baholash va tahlil qilishda qo‘llashni rivojlantirish maqsadida 2012 yilning 12-17 mart kunlari “Mudis”, 17-19 aprel kunlari “Standart end Purs” va 19 iyun kuni “Fitch Reytings” agentliklari bilan hamkorlikda ana shunday amaliy uchrashuvlar o‘tkazildi.

Shuningdek, 12 iyunda “Mudis” agentligining “O‘zbekiston bank sohasini baholash bo‘yicha faoliyati” mavzuida, 19 iyunda “Fitch Reytings” agentligi bilan “O‘zbekiston banklari: tashqi nobarqaror sharoitda rivojlanish” mavzuida va 25 iyulda “Standart end Purs” reyting agentligining kredit reytingi hamda uning

O'zbekiston banklari tomonidan qo'llanilishi" mavzuida amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

Ushbu tadbirlar bank nazoratining yangi talablarini joriy qilish bo'yicha ishlab chiqilayotgan harakat dasturlarini takomillashtirish, banklar rahbarlari va mutaxassislarining bu boradagi bilimlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasida bank tizimining barqarorligi ta'minlanmoqda va uning vositachilik roli kengaymoqda hamda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati yanada oshib bormoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari respublikamizning barcha mintaqalarida o'z muassasalariga ega bo'lib, mamlakatimiz aholisi va xo'jalik sub'ektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ko'rsatkichlari eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetdi.

Mazkur chora-tadbirlar zahirida Prezidentimizning tijorat banklari yetarli kapitalga ega hamda moliyaviy barqaror bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, ular yirik investitsiya institutlariga aylanishi zarurligi haqidagi fikrlari yotishini alohida ta'kidlash joiz.

Qolaversa, Yurtboshimizning «Investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi» degan fikrlari banklarning investitsiya jarayonlaridagi o'zni naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, tijorat banklarining ichki kredit va investitsiya siyosati hamda investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlari, respublikamizda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash vazifalaridan kelib chiqqan holda, yanada takomillashtirildi. Bundan tashqari, banklarda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'yicha maxsus tarkibiy bo'linmalar tuzildi.

Shuningdek, banklarning investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish, moliyalash va monitoring qilish faoliyatini amalga oshiruvchi mavjud bo'linmalarining vazifa va funktsiyalari qayta ko'rib chiqildi hamda mazkur bo'linmalar yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlandi.



Tijorat banklari tomonidan bugungi kunda ichki manbalar hisobiga iqtisodiyotga yo`naltiriladigan uzoq muddatli kredit qo`yilmalar ulushini yanada oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy texnologiya asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yishga qaratilgan investitsion faoliyatni kuchaytirish siyosati amalga oshirilmoqda.

### **2.3. Chet el kapitali ishtirokidagi “Savdogar” ochiq aksiyadorlik tijorat banki kapitali shakllanish xususiyatlari**

Mamlakatni modernizatsiyalash va jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarini barataraf etish sharoitlarida tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish zarur ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida tijorat banklari moliyaviy resurslari katta xatar ta`sirida vaqtida shakllanmasligi tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga jiddiy xavf ostida qoladi. Bunday sharoitlarda tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda banklarning kapitallashuv darajasi va likvidligini oshirish asosiy boshqarish elementlaridan hisoblanadi. Banklar kapitallashuv darajasi va likvidligining oshishi pirovardida ular moliyaviy barqarorligining ta`minlanishiga, shuningdek, keng ko`lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvchi barqaror resurs bazasining shakllanishiga zamin yaratadi. Ayni kunlarda mamlakatimizda barqaror faoliyat olib borayotgan tijorat banklaridan biri bu chet el kapitali ishtirokidagi O`zbekiston-Germaniya «Savdogar» ochiq aksiyadorlik tijorat bankidir.

«Savdogar» ochiq aksiyadorlik tijorat banki O`zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to`g`risida"gi qonunda belgilangan tartibda Savdogarbank Kengashining 1998 yil 1 dekabrda qaratilgan qaroriga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda tashkil etilgan.

Savdogar bank o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan Markaziy bankning bank operatsiyalarini

amalga oshirish qoidalarini belgilovchi va banklar faoliyatiga taalluqli boshqa me'riy hujjatlarga hamda mazkur Nizomga, Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, Bank Kengashi va Bank Boshqaruvi qarorlariga va Bank Ustaviga amal qiladi.

Savdogar banki o'z mijozlariga kredit, moliya, hisob-kitob va boshqa xildagi bank xizmatlari to'liq majmuini ko'rsatishi mumkin, shu jumladan:

- jismoniy va yuridik shaxslarning hisobvaraqqarini ochish va yuritish, hisobvaraklar bo'yicha hisob-kitob qilish;

- depozitlarni jalb qilish;

- o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish;

- mablag' egasi va yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;

- chet el valyutasini nakd pul va naqts bo'lmagan pul shakllarida yuridik va jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;

- pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;

- uchinchi shaxs nomidan majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha Bosh bank roziligi bilan kafolat berish;

- qimmatli qog'ozlar xarid qilish, sotish hisobini yuritish va ularni saqyaash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa turdagi operatsiyalarni bajarish;

- bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

- jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;

- moliyaviy lizing;

- xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, bank litsenziyasida maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Savdogar bankining moliyaviy resurslari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- joriy yil foydasi;

- o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi;

- Bank boshqarmasi tomonidan berilgan kredit resurslar;
- taqsimlanmagan foyda hisobidan shakllantirilgan zahira va boshqa fondlar;

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdek ulkan vazifaning bajarilishida bank tizimining bevosita va muayyan ahamiyati mavjud. Zero Prezidentimiz taʼbirlari bilan aytganda, banklar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda lokomotiv rolini bajarmoqda. Shu jumladan Savdogar bank tomonidan ham mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish boʻyicha zaruriy chora tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

*3-jadval*

**Savdogar bankning daromadlari va xarajatlari tarkibi, mln. soʻmda<sup>12</sup>**

| <b>Koʻrsatkich nomi</b> | <b>2010 yil</b> |            | <b>2011 yil</b> |            | <b>2012 yil</b> |              |
|-------------------------|-----------------|------------|-----------------|------------|-----------------|--------------|
|                         | ming soʻm       | foiz       | ming soʻm       | foiz       | ming soʻm       | foiz         |
| <b>Jami</b>             | <b>32222,7</b>  | <b>100</b> | <b>36387,1</b>  | <b>100</b> | <b>42782,8</b>  | <b>100</b>   |
| A) Foizli               | 16745,3         | 52,0       | 18524,7         | 50,9       | 19759,9         | 46,2         |
| B) Foizsiz              | 15477,4         | 48,0       | 17862,4         | 49,1       | 23022,9         | 53,8         |
|                         |                 |            |                 |            |                 |              |
| <b>Jami xarajat</b>     | <b>23185,4</b>  | <b>100</b> | <b>25507,5</b>  | <b>100</b> | <b>31906,2</b>  | <b>100,0</b> |
| A) Foizli               | 4372,5          | 18,9       | 5287,6          | 20,7       | 8121,4          | 25,5         |
| B) Foizsiz              | 18812,9         | 81,1       | 20219,9         | 79,3       | 23784,8         | 74,5         |

Jadval maʼlumotlariga eʼtibor qaratsak, Savdogar bankning jami daromadi 2012 yilda 42782,8 mln. soʻm boʻlgani holda (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 6395,7 mln. soʻm koʻp) jami xarajat 31906,2 mln. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 6398,7 mln. soʻm koʻp) ni tashkil etgan va biznes reja koʻrsatkichlari bajarilishiga erishildi.

Xarajatlarning asosiy qismi bank muddatli majburiyatlari, Markaziy bank va boshqa fondlardan olingan kreditlar, chiqarilgan qimmatli qogʻozlar boʻyicha foiz xarajatlari kabi xarajatlar tashkil qiladi. Operatsion xarajatlar tarkibida qoʻriqlash xarajati, devonxona ofis va boshqa buyumlar xarajatlari, kontselyariya tovarlari, xoʻjalik jihozlari va boshqa xarajatlari tashkil qilgan.

<sup>12</sup> Bank axborotnomasi, 2013 yil 3 aprel, 14-sonidagi bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Savdogar bank faoliyatiga bir nazar tashlar ekanmiz, uning faoliyati holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bir nechta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bank filialining faoliyati samaradorligi, moliyaviy holati, barqarorligini ifodalovchi dastlabki ko'rsatkichlarni uning balansidan olishimiz mumkin. Bank balansining o'ziga xos xususiyati shundaki, balansining jamini chiqarishda yoki hisoblashda bank aktivlari, bank kapitali va daromadlarining aktiv qoldig'i, bank majburiyatlari va xarajatlarining passiv qoldig'i hisobga olinadi.

Savdogar bankning balansi ma'lumotlarini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilishimiz mumkin.

4-jadval

**Savdogar bankning balansi tahlili, mln. so'mda<sup>13</sup>**

| № | Ko'rsatkichlar                                                              | 2010 yil | 2011 yil | 2012 yil | 2011 yil 2010<br>yilga n-n |       | 2012 yil 2011<br>yilga n-n |       |
|---|-----------------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------------------------|-------|----------------------------|-------|
|   |                                                                             |          |          |          | +/-                        | %     | +/-                        | %     |
| 1 | Naqd pullar                                                                 | 9876,3   | 12610,7  | 15174,2  | 2734,4                     | 127,7 | 2563,5                     | 120,3 |
| 2 | O'zbekiston Respublikasi markaiy bankidan olinishi kerak bo'lgan mablag'lar | 18812,4  | 21166,1  | 39620,9  | 2353,7                     | 112,5 | 18454,8                    | 187,2 |
| 3 | Boshqa banklardan olinishi kerak bo'lgan mablag'lar                         | 8742,5   | 10231,8  | 23500,2  | 1489,3                     | 117,0 | 13268,4                    | 229,7 |
| 4 | Mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklar                                  | 104771,2 | 134962,6 | 169305,8 | 30191,4                    | 128,8 | 34343,2                    | 125,4 |
|   | (Minus: ehtimoliy zararlar bo'yicha zahiralar)                              | 14654,8  | 8397,1   | 10090,2  | -6257,7                    | 57,3  | 1693,1                     | 120,2 |

<sup>13</sup> Bank axborotnomasi, 2013 yil 3 aprel, 14-sonidagi bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

|   |                            |                 |                 |                 |                |              |                |              |
|---|----------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|----------------|--------------|----------------|--------------|
|   | Sof kreditlar va bo`naklar | 90116,4         | 126565,6        | 159215,6        | 36449,2        | 140,4        | 32650          | 125,8        |
| 5 | Asosiy vositalar           | 19744,3         | 20454,8         | 20682,4         | 710,5          | 103,6        | 227,6          | 101,1        |
| 6 | Nomoddiy aktivlar          | 471,2           | 531,4           | 1688,8          | 60,2           | 112,8        | 1157,4         | 317,8        |
| 7 | Boshqa aktivlar            | 7045,2          | 8807,5          | 11770,3         | 1762,3         | 125,0        | 2962,8         | 133,6        |
|   | <b>JAMI AKTIVLAR</b>       | <b>154808,3</b> | <b>200368,9</b> | <b>271652,4</b> | <b>45559,6</b> | <b>129,4</b> | <b>71284,5</b> | <b>135,6</b> |
| 1 | Majburiyatlar              | 134174,9        | 169846,8        | 230967,8        | 35671,9        | 126,6        | 61121          | 136,0        |
|   | shundan: jami depozitlar   | 97420,6         | 124753,8        | 185287,3        | 27333,2        | 128,1        | 60533,5        | 148,5        |
| 2 | Xususiy kapital            | 20633,4         | 30520,8         | 40684,6         | 9887,4         | 147,9        | 10163,8        | 133,3        |
|   | <b>JAMI PASSIVLAR</b>      | <b>154808,3</b> | <b>200368,9</b> | <b>271652,4</b> | <b>45559,3</b> | <b>129,4</b> | <b>71284,8</b> | <b>135,6</b> |

Jadval ma`lumotlariga e`tibor beradigan bo`lsak, bankning jami aktivlari 2012 yilda 271652,4 mln. so`mni tashkil qilgan bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 135,6 foizga ko`paygan. 2011 yilda esa bu ko`rsatkich 2010 yilga nisbatan 129,4 foizni tashkil qilgan.

Bank majburiyatlari 2012 yilda 230967,8 mln. so`mni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 148,5 foizga ko`paygan, 2011 yilda esa 169846,8 mln. so`mni tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan 126,6 foizga ko`payganligini ko`rish mumkin.

Bank xususiy kapitalining o`zgarishiga e`tibor qaratadigan bo`lsak, 2012 yilda Savdogar bank xususiy kapitali 40684,6 mln. so`mni tashkil qilgan bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 133,3 foizga ko`paygan. 2011 yilda esa uning miqdori 30520,8 mln. so`mni tashkil qilgan va 2010 yilga nisbatan 147,9 foizga ko`paygan.

Savdogar bankning kapitali tarkibiga e`tibor qaratadigan bo`lsak, uning asosan qo`shimcha aktsiyalar emissiya qilish hisobiga ko`payganligini ko`rishimiz mumkin. Bu ma`lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

5-jadval

**Savdogar bank kapitali shakllanish manbalari tahlili, mln. so`mda<sup>14</sup>**

| Bank kapitali tarkibi      | 2010 yil       | 2011 yil       | 2012 yil       | 2011 yil 2010 yilga n-n |              | 2012 yil 2011 yilga n-n |              |
|----------------------------|----------------|----------------|----------------|-------------------------|--------------|-------------------------|--------------|
|                            |                |                |                | +/-                     | %            | +/-                     | %            |
| <b>Bank kapitali, jami</b> | <b>20633,4</b> | <b>30520,9</b> | <b>40684,6</b> | <b>9887,5</b>           | <b>147,9</b> | <b>10163,7</b>          | <b>133,3</b> |
| Ustav kapitali             | 27459,1        | 32945,6        | 41382,8        | 5486,5                  | 120,0        | 8437,2                  | 125,6        |
| Emissiya daromadi          |                | 35,6           | 63,7           |                         |              | 28,1                    | 178,9        |
| Zahira kapitali            | 1822,8         | 1911,9         | 1974,7         | 89,1                    | 104,9        | 62,8                    | 103,3        |
| To`plangan taqchillik      | -8648,6        | -4372,2        | -2736,7        | 4276,4                  | 50,6         | 1635,5                  | 62,6         |

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, bankning jami kapitali 2012 yilda 40684,6 mln. so`mni tashkil qilgan, 2011 yilga nisbatan o`zgarish sur`ati 133,3 foizni tashkil qiladi. 2011 yilda esa bankning jami kapitali 30520,9 mln. so`mni tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan 147,9 foizga yoki 9887,5 mln. so`mga ko`paygan.


Bank kapitali tarkibida ustav kapitali muhim o`rin egallaydi. Kapital tarkibida ustav kapitali 2012 yilda 41382,8 mln. so`mni tashkil qilgan bo`lib, 2011 yilga nisbatan 125,6 foizni tashkil qilgan. 2011 yilda ustav kapitali miqdori 32945,6 mln. so`mni tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan 120 foizga yoki 5486,5 mln. so`mga ko`paygan.

Bank kapitali tarkibining tuzilish va yillardagi o`zgarishini quyidagi diagrammadan ko`rishimiz mumkin.

4-chizma

**Savdogar bank kapitali shakllanishi dinamikasi, mln. so`m**

<sup>14</sup> Bank axborotnomasi, 2013 yil 3 aprel, 14-sonidagi bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Bank kapitali shakllanishida ustav kapitalining ulushi alohida o`rin tutadi. Jumladan, Savdogar bankning kapitali tarkibida ham bu yo`nalishdagi mablag`lar manbalari holatini tahlil qiladigan bo`lsak, 2012 yilda ustav kapitali 41382,8 mln. so`mni tashkil qilgan, lekin bank xususiy kapitali tarkibida to`plangan taqchillik (qoplanmagan zarar) mavjudligi bank kapitali jami shakllanishiga ta`sir ko`rsatgan ( $\text{jami kapitali} = 41382,8 + 63,7 + 1974,7 - 2736,7 = 40684,6$ ).

Yuqoridagi tahliliy ma`lumotlarga asoslanadigan bo`lsak, Savdogar bankning kapitali tarkibini samarali tashkil etilgan deyish mumkin. Chunki moliyaviy resurslarning tarkibiy tuzilishi va yillar bo`yicha o`zgarish dinamikasida asosan o`sish sur`atlari kuzatilmoqda. Demak, bu ko`rsatkichlar tijorat bankini moliyaviy jihatdan yaxshi ta`minlangan bank deyishga asos bo`la oladi.

### **3-bob. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida bank kapitalini takomillashtirish**

#### **3.1. Banklar kapitallashuvi rivojlanish tendentsiyalari**

Mamlakatni modernizatsiyalash va jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarini barataraf etish sharoitlarida tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish zarur ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida tijorat banklari moliyaviy resurslari katta xatar ta'sirida vaqtida shakllanmasligi tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga jiddiy xavf ostida qoladi. Bunday sharoitlarda tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda banklarning kapitallashuv darajasi va likvidligini oshirish asosiy boshqarish elementlaridan hisoblanadi. Banklar kapitallashuv darajasi va likvidligining oshishi pirovardida ular moliyaviy barqarorligining ta'minlanishiga, shuningdek, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvchi barqaror resurs bazasining shakllanishiga zamin yaratadi.

2012 yilda respublika bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" Dasturi hamda respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:

- bank nazorati tizimini yanada takomillashtirish, bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasining yangi tavsiyalarini tatbiq etish bilan bog'lik tadbirlarni davom ettirish;

- mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatini etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan me'yor, andoza va ko'rsatkichlar asosida baholash amaliyotini kengaytirish;



- tijorat banklarining resurs bazasini ularning kapitallashuv darajasi hamda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga jalb qilish orqali yanada oshirish;

- tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan, ularning investitsion faolligini hamda ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha loyihalarni kreditlash hajmlarini oshirish;

- tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash, ular bazasida tashkil etilgan yangi korxonalarni strategik investorlarga sotish ishlarini yanada faollashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari, boshlang‘ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini kengaytirish;

- xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

2013 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda 29 ta tijorat banki faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning 3 tasi davlat-tijorat banki, 13 tasi aksiyadorlik-tijorat banki, 9 tasi xususiy bank va 4 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

Respublikamizda faoliyat yuritilayotgan barcha bank muassasalari soni 9 551 taga etdi, jumladan, banklarning filiallari 829 tani tashkil etdi.

Respublikamizning har 100 mingta katta yoshli aholisiga yil yakuniga o‘rtacha 49,7 ta bank muassasasi xizmat ko‘rsatdi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464 sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan “yuqori” bahoga muvofiq keladi.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o‘rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko‘lamining oshishiga xizmat qilmoqda.

2012 yil davomida bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar doirasida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha aniq belgilangan chora-tadbirlar davom ettirildi.

Xususan, aksiyadorlik-tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 2012 yil davomida 500 mlrd. so'mlik qo'shimcha aksiyalar chiqarildi.

Muomalaga chiqarilgan aksiyalarning 25 foizidan kam bo'lmagan qismi "Toshkent" respublika fond birjasi orqali birlamchi ochiq savdolarida joylashtirildi.

2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 17 ta tijorat bankining aksiyalari "Toshkent" respublika fond birjasi listingiga kiritilgan bo'lib, ushbu banklarning qimmatli qog'ozlari muntazam ravishda birjada kotirovka qilinib, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilib borilmoqda.

Natijada tijorat banklarining jami kapitali 2012 yilda 24,3 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga 6,2 trln. so'mni tashkil etdi.

Banklarda barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish, aholining bo'sh pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishni yanada rag'batlantirish va kafolatlashga doir qabul qilingan Prezidentimizning qator Farmon va Qarorlari aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Natijada, banklar tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi 2012 yil boshiga nisbatan 31,5 foizga ortdi. Jumladan, aholining banklardagi omonatlari hajmi 34,6 foizga o'sdi.

"Mustahkam oila" davlat dasturi doirasida tijorat banklari tomonidan aholiga qulayliklarni kengaytirish maqsadida yangi muddatli va jamg'arma omonat turlari joriy etildi. Umuman olganda, aholiga taklif etilayotgan va uning turli qatlamlari uchun qulay va manfaatli bo'lgan omonat turlarining soni 250 tadan oshdi.

Natijada respublikamizning har mingta katta yoshli aholisiga to'g'ri keladigan jismoniy shaxs-omonatchilar hisobvaraqlari soni 1 027 taga etib, bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-

1464-sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan “yuqori daraja”dagi bahoga muvofiq keldi.


Banklarda barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan va joylashtirilgan depozit sertifikatlari 2013 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, 445,6 mlrd. so‘mni hamda investorlar o‘rtasida joylashtirilgan tijorat banklarining uzoq muddatli obligatsiyalari 258,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Ushbu tadbirlar, o‘z navbatida, banklarning aktiv operatsiyalar hajmini, jumladan, kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini oshishiga zamin yaratdi.

Tijorat banklarining jami aktivlari yil davomida 30,2 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra 35,7 trln. so‘mga etdi (5-chizma).

5-chizma

**Tijorat banklarining jami aktivlari qoldig‘i dinamikasi, mlrd. so‘m<sup>15</sup>**




Banklar tomonidan ajratilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i esa 30,5 foizga o‘shib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra 20,4 trln. so‘mni tashkil etdi (1.4.2-chizma).

<sup>15</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Ajratilgan kreditlarning 85,8 foizi ichki manbalar hisobiga berilgan bo‘lib, tashqi qarzar asosan uzoq muddatga, asosan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda (6-chizma).

6-chizma

**Tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari dinamikasi, mlrd. so‘m<sup>16</sup>**



Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi esa, 76,8 foizni tashkil qilib, ularning hajmi 2011 yildagiga nisbatan 30,7 foizga oshdi.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig‘i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Banklarning investitsiya kreditlari ustuvor ravishda “2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish”, «2012 yilgi Investitsiya dasturi» hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy


<sup>16</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

tadbikorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olishga yo'naltirilmoqda.

2012 yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 5 760 mlrd. so'm yoki 2011 yildagiga nisbatan 1,3 barobarga ko'p investitsiya kreditlari ajratildi (7-chizma).

7-chizma

### **Tijorat banklarining investitsiyaviy kreditlari dinamikasi<sup>17</sup>**



Inqirozga qarshi choralar dasturi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan jami 168 ta iqtisodiy nochor korxona bank balansiga qabul qilingan bo'lib, ushbu korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash va modernizatsiya qilish maqsadida banklar

<sup>17</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

tomonidan 388 mlrd. soʻmlik investitsiyalar kiritildi hamda faoliyati tiklangan korxonalarning 120 tasi yangi mulkdorlarga 919,3 mlrd. soʻmga sotildi.

Bugungi kunda tijorat banklari balansidagi faoliyati tiklangan korxonalarni yangi mulkdorlarga sotish ishlari olib borilmoqda hamda 11 ta korxonada ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish boʻyicha texnologik liniyalarni tiklash, qurilish-taʼmirlash, yangi uskunalar oʻrnatish va modernizatsiyalash bilan bogʻliq ishlar amalga oshirilmoqda.


Umuman olganda, banklar balansiga olingan holda faoliyati tiklangan korxonalarda jami 1,7 trln. soʻmlik mahsulot (xizmat) ishlab chiqarildi va shundan, 480,0 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash borasida bank tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

2012 yilda, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar 2011 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 5 trln. 346 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Ushbu ajratilgan kreditlarning 1 trln. 172 mlrd. soʻmi mikrokreditlar boʻlib, ularning hajmi 2011 yildagiga nisbatan 1,5 barobarga oʻsdi (8-chizma).

8-chizma

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga  
berilgan jami kreditlar va mikrokreditlar dinamikasi, mlrd.soʻm<sup>18</sup>**



<sup>18</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti maʼlumotlari asosida tayyorlandi.

Shuningdek:

- mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga jami 978,2 mlrd. so‘m;
- nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishga 1 trln. 41,3 mlrd. so‘m;
- imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasi hisobidan 42,3 mlrd. so‘m;
- xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining kredit liniyalari va grantlari hisobidan 181,7 mln. AQSh dollari miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi.

“Mustahkam oila yili” Davlat dasturida bank tizimiga yuklatilgan vazifalar to‘liq ijro etildi.

Jumladan, 2012 yil mobaynida:

- oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga 97,8 mlrd. so‘m;
- xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish maqsadlariga 491,7 mlrd. so‘m;
- shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga qoramol sotib olishga jami 77,6 mlrd. so‘m;
- meva-sabzavot mahsulotlari etishtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirishga 339,8 mlrd. so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi.

Shu bilan birga, Xalq banki hamda Mikrocreditbank tomonidan 2012 yilda Xalqaro hamkorlik bo‘yicha omonat kassalari jamg‘armasining (Germaniya) “Xususiy tadbirkorlikni mikrocreditlash bo‘yicha qayta tiklanuvchi kredit jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi tadbirkor ayollarga boshlang‘ich kapitalni shakllantirish uchun 267,8 ming evro miqdorida mikrocreditlar ajratildi.

2012 yil davomida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 48,5 mlrd. so‘m miqdorida imtiyozli mikrocreditlar ajratildi.

O'tgan yilda, oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, turmush darajasini oshirish maqsadida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar, jumladan mebellar, maishiy texnikalar va boshqa turdagi uzoq foydalaniladigan jihozlarni sotib olishga jami 320 mlrd. so'mlik, shu jumladan 15 mingta yosh oilaga uch yillik qaytarish muddati bilan 81 mlrd. so'mlik iste'mol kreditlari ajratildi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz tijorat banklari hamda yangi tashkil topayotgan kredit institutlari o'rtasida teng va beg'araz raqobat vujudga kelmoqda. Bu esa tijorat banklari boshqaruv strategiyasining to'g'ri tanlanganligi, aktivlarning ishonchli joylashtirilganligi, majburiyatlarni bajarish va likvidlilikni ta'minlashda ijobiy natijalarga erishish zarurligi hamda shu asosda yuqori daromadga erishish mumkinligidan darak bermoqda.

Banklar depozitlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha o'z rejalariga ega bo'lishlari kerak. Marketing – mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish (ular inqiroz davrida ham bankka sodiq bo'lib qolishlari maqsadida) shunday rejaning bir qismi bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklari resurslarining diversifikatsiyalashganligi ularning likvidlilik va to'lovga qobiliyatli bo'lishining garovi ekanligini hisobga olgan holda bu resurslarning samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va yaxshilash borasida bir qator amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdi<sup>19</sup>. Ulardan birinchisi shundan iboratki, menejerlar bankning mablag'larni jalb qilish va foydalanish uchun javobgar bo'lgan barcha bo'limlari faoliyatini nazorat qilishlari va o'z faoliyatlarini shu bo'limlarning faoliyati bilan muvofiqlashtirishlari zarur. Masalan, har safar, tijorat kreditlari bo'limi mijoz uchun yangi kredit liniyasini ochayotganida, menejer bu kredit bo'yicha mablag'larni ajratishga tayyor bo'lishi shart. Agar muddatli va jamg'arma hisobraqamlar bo'limi yaqin kunlarda yirik depozit sertifikatlarining kelib tushishini kutayotganida, menejer bu haqda xabardor bo'lishi shart.

Ikkinchi tavsiya shundan iboratki, likvidlilikni boshqarish bo'yicha menejerlar (iloji bo'lgan taqdirda) bankning eng yirik omonatchilari va kreditlaridan

---

<sup>19</sup> Sh. Abdullaeva. Bank ishi. Dasrlik. T.: TMI, 2003 y., 180-b.



foydalanuvchilari qachon hisobraqamlaridan mablag` olishni yoki omonatlarini ko`paytirishni rejalashtirayotganligini ko`ra bilishi kerak. Bu likvid mablag`lar taqchilligi yoki ortiqchaligi vujudga kelgan hollarda boshqaruvchiga o`z harakatlarini rejalashtirish imkonini beradi.

Uchinchi tavsiyaga binoan likvidlikni boshqarish bo`yicha menejerlar yuqori rahbariyat va bo`limlarning rahbarlari bilan hamkorlik qila turib, likvid mablag`larni boshqarish ustivorliklari va maqsadining yaqqol ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Yaqin o`tmishda mablag`larni joylashtirishda bank likvidligi ko`p hollarda yuqori ustivorlikka ega edi. Odatda, bank mablag` manbalarini (asosan omonatlarni) umuman nazorat qilmaydi yoki kam nazorat qiladi, bu mablag`lar aholi tomonidan aniqlanadi, biroq banklar majburiy tarzda mablag`lardan foydalanishni nazorat qilishadi deb hisoblanar edi. Qonun bo`yicha har bir bank likvid mablag`larining bir qismini qonunda ko`rsatilganidek zahira jamg`arish uchun Markaziy bankga o`tkazishi va istalgan paytda hisobraqamlardan mablag`larni chiqarishga tayyor turishi lozimligi uchun likvid mablag`larni boshqarish va likvid aktivlarga yetarli mablag`larni ajratish so`ngi yillarda yuqori ustivorlikka ega bo`ldi. Bugungi kunda likvid mablag`larni boshqarish bankning birinchi raqamli ustivor yo`nalishi hisoblangan barcha toifadagi mijozlarga qarz berishga nisbatan yordamchi mexanizm sifatida qabul qilinadi. Bank o`zi uchun foydali bo`lgan har xil qarz turlarini berishi kerak va bunda boshqaruvchi oldiga likvid mablag`lar orqali kreditlarni ta`minlash uchun yetarli darajada pul mablag`larini izlab topish vazifasi qo`yilishi lozim.

To`rtinchi tavsiyaning mazmuni shundan iboratki, bankning likvid mablag`larga bo`lgan ehtiyojlari va ularni joylashtirish bo`yicha qarorlari likvid mablag`larning taqchilligi va ortiqchaligiga yo`l qo`ymaslik maqsadida muntazam ravishda tahlil qilib borilishi lozim. O`sha kuni qayta moliyalashtirilmagan ortiqcha mablag`lar bank daromadining yo`qotilishiga olib keladi, ayni paytda shoshilinch qarzlar yoki aktivlarni sotish kabi daromad yo`qotilishiga olib keluvchi nomaqbul oqibatlarning oldini olish maqsadida ularning taqchilligi zudlik bilan bartaraf etilishi zarur.

### 3.2. Tijorat banklari kapitali shakllanishi ustidan Markaziy bank tomonidan olib boriladigan siyosatning takomillashtirilishi

Markaziy bank "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" gi qonunning 52-moddasi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonunning 25-moddasiga muvofiq banklardan bank faoliyati, iqtisodiy vaziyat va moliyaviy ahvoliga xos riskka qarab kapital yetarliligining yanada yuqori koeffitsientlari ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday risklar o'z ichiga quyidagilarni oladi va ular bilan cheklanib qolmaydi: muammoli kreditlarning katta miqdori, sof zararlar, aktivlarning katta miqdorda o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali riskning yuzaga kelishi va tavakkalli faoliyatga jalb qilinishi.

Kapitalning yetarlilik koeffitsientlari:

a) riskka asoslangan kapitalning umumiy summasi (**RAKUS**) chegirmalarni hisobga olgan holda 1-darajali kapital va II-darajali kapital yig'indisi sifatida aniqlanadi;

b) riskni hisobga olgan holdagi aktivlar umumiy summasi (**RHOAUS**) chegirmalar ajratilib, risk hisobga olingan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi;

v) umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti  $K_1$  quyidagicha hisoblanadi:

$$K_1 = \text{RAKUS} / \text{RHOAUS}$$

$K_1$  ning minimal ruxsat etilgan darajasi 0.1 ga teng (10 foiz)

g) 1-darajali kapitalning yetarlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_2 = \text{1-darajali kapital} / \text{RHOAUS}$$

$K_2$  ning minimal ruxsat etilgan darajasi 0.05 ga teng (5 foiz)

d) 1-darajali kapital riskka asoslangan umumiy kapitalning 50 foizidan kam bo'lmashligi kerak.

Kapitalning yetarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari nomoddiy aktivlar va Gudvill chegirib tashlangan 1-darajali kapitalning umumiy

aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak:

$$K_3 = \text{1-darajali kapital} / (\text{Umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{Gudvill})$$

Leveraj koeffitsientining minimal ruxsat etilgan darajasi 0.06 ga teng (6 foiz)

Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidlik aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 % dan kam bo'lmasligi kerak.

Bank likvidligini tahlil qiluvchi davr (oylik, choraklik, yillik) mobaynida o'zgarishlar tendentsiyasiga ahamiyat berishi va o'zgarishlar ahamiyatini hamda xarakterini o'tgan davrlarga nisbatan baholashi, resurslar jalb qilishning o'tgan va joriy strategiyalarini baholashi, shuningdek imkoni bo'lsa, o'xshash banklar bilan taqqoslanishi lozim.

Likvidlik koeffitsientlari o'z-o'zidan likvidlikning yetarliligi bo'yicha aniq ma'lumot bermaydi, ularga umumiy bahoning bir qismi sifatida qarash kerak. quyida likvidlik koeffitsientlari bo'yicha misollar keltirilgan:

- Likvid aktivlar (zahiraning ortiqcha qismi, erkin ayirboshlanadigan valyuta, DQMO lari, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari) / jami aktivlar;
- Doimiy bo'lmagan majburiyatlar (yirik depozitlar ma'lum manbalardan olingan qarzlar) / jami aktivlar.
- Likvid aktivlar / Doimiy bo'lmagan majburiyatlar.

Barcha yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotni aks ettiradi - ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi bankning resurslarning barqaror bo'lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfeldagi yuqori likvidli aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

Kreditlar/Depozitlar - depozitlar, ayniqsa, mayda omonatchilarga te-gishli qismi odatda resurslarning barqaror manbaidir. Ko`rsatkichning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) yoki o`shishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingan qisqa muddatli qarzar) manbalariga bo`lgan talabning pastligini bildiradi.

Garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar jami qimmatli qog`ozlar - garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar umumiy ko`rsatkichi bo`lib, u likvidlikka tezkor talablarni qoplash uchun qo`llanila olmaydi.

Bank rahbariyati joriy likvidlikdan tashqari o`zining likvidlik ko`rsatkichlari to`nlamini ishlab chiqishi va undan foydalanishi mumkin. Mazkur ko`rsatkichlar mazmushsh bo`lishi va har doim bankning moliyaviy holatini bog`olovchi boshqa ma`lumotlar bilan birgalikda baholanishi lozim.

Bir qarzdor yoki o`zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to`g`ri keluvchi riskning eng yuqori darajasi bir qarzdor yoki o`zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to`g`ri keluvchi riskning eng yuqori darajasi 1 darajali bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak.

Ishonchli kreditlar uchun riskning eng yuqori darajasi 1-bosqichli bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur.

Bankning barcha yirik kreditlarining umumiy xajmi 1-bosqichli bank kapitalidan 8 martadan ortiq oshib ketishi mumkin emas.

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan hollarda qimmatli qog`ozlarga qo`yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

a) bankning bir korxona ustav kapitaliga, shuningdek, ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog`ozlariga qilgan qo`yilmasi miqdori birinchi darajali bankregulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasyaigi kerak. Ushbu me`yor bir emitentning ham «Investitsiyalar» hisobvaraqlari, ham «qimmatli qog`ozlar oldi-sotdisi» hisobvaraqlari bo`yicha nodavlat qimmatli qog`ozlariga qilingan bank qo`yilmalarini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi;

b) bankning barcha emitentlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmasi miqdori birinchi darajali bank regulativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Bank istalgan korxona (moliyaviy institutlardan tashqari) ustav kapitalining 20 foizidan ortig'iga to'g'rdan-to'g'ri yoki bilvosita (sho'ba korxonalari orqali) egalik qilishi mumkin emas

Agar emitent faoliyati yoki amaldagi yexud rejalashtirilayotgan bank investitsiyalari miqdori omonatchilar, kreditorlar va aktsiyadorlar manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkinligi yoki investitsiyalarni boshqarishda bank tajribasi yetarli emasligi aniqlansa, Markaziy bank istalgan emitent qimmatli qog'ozlariga bank tomonidan kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga qo'shimcha cheklovlar belgilash huquqiga ega.

Garov huquqlarini amalga oshirish natijasida qimmatli qog'ozlar olingan hollarda bank 1 oy muddat ichida olingan qimmatli qog'ozlarni sotishi shart. Agar qimmatli qog'ozlar ko'rsatilgan muddatda sotilmasa, ular «qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi» yoki «Investitsiyalar» hisobvarag'lariga o'tkaziladi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan baholanib kelinmoqda va 2012 yil yakuniga ko'ra ham bank sohasi bo'yicha indikatorlar "yuqori daraja"dagi baholarga ega bo'ldi .

Jumladan, respublika bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil qilib, qabul qilingan xalqaro me'yorga nisbatan 3 barobar yuqori hamda bank tizimi likvidligi 65,5 foizni tashkil qilib, talab etiladigan eng kam darajadan 2 barobar yuqori bo'lishining ta'minlanganligi xalqaro moliya tashkilotlari va hamjamiyatning yuqori e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi 117-sonli qarori asosida 2012 yilning 1 iyulidan boshlab joriy etilgan,

hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, jumladan, moliya-bank sohasi faoliyatini baholovchi indikatorlarning har chorakdagi natijalari tijorat banklarining hududlardagi filiallari depozit bazasi va kredit qo'yilmalarining yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi va ularning tarkibida uzoq muddatli kreditlar salmog'ining yuqoriligini ko'rsatdi.

Natijada, "Fitch reytings", "Mudis" va "Standart end Purs" kabi etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining ijobiy reytingini olgan tijorat banklari soni ko'payib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, ushbu etakchi xalqaro reyting agentliklarining "barqaror" reytingini olgan tijorat banklari soni 28 taga etdi.

Shu bilan birga, "Mudis" reyting agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollariga berilgan "barqaror" darajadagi reyting bahosi 2012 yilning 29 avgust kuni ketma-ket uchinchi yil qayta tasdiqlandi.

"Mudis" agentligining hisobotida qulay iqtisodiy sharoit, faol investitsiya siyosati va banklar kapitallashuvining barqaror yuqori darajasi ushbu prognozning asosiy omillari bo'ldi, deb qayd etilgan. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan global nomutanosibliklarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti, shu jumladan bank-moliya tizimi muttasil barqaror rivojlanmoqda.

"Bizning fikrimizcha, O'zbekistondagi makroiqtisodiy shart-sharoit banklarning umumiy operatsion muhitiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, bunda depozitlar oqimining o'sishidan ham, kreditga bo'lgan talabning oshishidan ham mamlakat bank tizimi yutadi", - deb ta'kidlanadi reyting agentligining hisobotida.

"Standart end Purs" xalqaro reyting agentligi esa, mamlakat bank tizimini ijobiy baholab, reytingini bir pog'ona yuqoriga ko'tardi.

Bundan tashqari, Xalqaro Valyuta Fondi missiyasining 2012 yil noyabr-dekabr oylaridagi respublikamizdagi ishining yakunlari bo'yicha bayonotida "O'zbekiston bank tizimi yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etib kelmoqda. Xalqaro standartlardan kelib chiqib qaraganda, banklar kapitalining etarlilik koeffitsiyenti yuqori darajada saqlanib turibdi" deb, bank tizimining rivojlanishiga ijobiy baho berildi.

2013 yilda bank tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» dasturida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bank tizimiga oid boshqa qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi.

Bu borada bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, Respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni so'zsiz amalga oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, bank aktivlari va kredit portfelining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu vazifalar doirasida bank tizimi nazoratini Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, bank tizimini va alohida banklarni yuqori xalqaro reyting baholariga ega bo'lishini ta'minlash, tijorat banklarining resurs bazasini yanada kengaytirish, ularning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan kreditlar hajmlarini ko'paytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Bunda bank tizimini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Bank tizimining barqarorligini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doirasida 2013 yilda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish tadbirlari davom ettiriladi.

Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining texnik ko'magida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi standartlarni joriy etish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

regulyativ kapital tarkibini qayta ko'rib chiqish va kapital komponentlarining etariligi bo'yicha belgilangan talablarni yanada kuchaytirish;

risklarning bir qarzdorda (yoki o'zaro bog'liq qarzdorlar guruhi), kreditlash ob'ektida, faoliyat turi va tarmoqda to'planishini nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish;

bank likvidligi bo'yicha normativlarni takomillashtirish, xususan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini joriy qilish;

jahonning eng barqaror banklari tajribasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan zamonaviy uslubiyotlar asosida banklar mijozlarining kreditga layoqatliligini skoring-tahlil qilish tadbirlarini davom ettirish;

banklarda korporativ boshqaruv, risklar va kapitalni boshqarish tizimlariga belgilangan talablarga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

bank faoliyatida kamchiliklarga yo'l qo'yilgani uchun uning kengashi a'zolariga ta'sir choralari belgilash vakolatini beruvchi qonunchilik talablarini qabul qilish bilan bog'liq ishlarni davom ettirish.

Shuningdek bank nazoratini amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash, kreditlarning o'z muddatlarida qaytarilishini ta'minlash, kreditlar muddatlarini uzaytirish amaliyotini cheklashga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi Qonunining 2012 yil 1 yanvardan kuchga kirganligi munosabati bilan, joriy yildan boshlab kredit muassasalarini bevosita kredit axboroti bilan ta'minlashga ixtisoslashgan kredit byurolari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Markaziy bank Kredit axboroti milliy institutining ma'lumotlar bazasi Kredit axborotining davlat reestri sifatida yuritilib, uning bank sektoridagi tizimli tavakkalchiliklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash borasidagi faoliyati yanada kuchaytiriladi.

O'zbekiston banklari uyushmasi va tijorat banklarining banklararo kredit byurosi negizida yangi qabul qilingan qonun hujjatlari talablariga muvofiq holda



tashkil etilgan «Kredit-axborot tahliliy markazi kredit byurosi» tijorat banklariga qarz oluvchilar to'g'risida kredit axborotlari taqdim etish xizmatlarini ko'rsatdi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, banklar kreditorlari va omonatchilarining himoyalaniish darajasini oshirish hamda aholi va xo'jalik sub'ektlari orasida bank tizimiga bo'lgan ishonchning yanada oshishiga xizmat qiladi.

2. Respublika moliya-bank tizimi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini Moliyaviy Hisobotlarning Xalqaro Standartlariga (MHXS) to'liq moslashtirish borasidagi tadbirlar Jahon bankining texnik ko'magida amalga oshiriladi.

Bunda:

- tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni MHXSGa moslashtirish maqsadida ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasining iqtisodiyot talablari inobatga olingan holda MHXSGa muvofiqlashtirilgan yangi tahririni ishlab chiqish;
- tijorat banklari tomonidan o'zlarining MHXSGa moslashtirilgan mustaqil hisob siyosatlarini qayta ishlab chiqish va bunda ularga Markaziy bank tomonidan har tomonlama yordam ko'rsatish;
- MHXS talablarini inobatga olgan holda banklarning avtomatlashtirilgan bank tizimlarini modernizatsiyalash;

Tijorat banklari mutaxassislarning MHXS talablariga mos moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarini yig'ish va ushbu hisobotlarni tuzishni amalga oshirish uchun etarli bilim va malakalarni o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida:

- xorijiy davlatlar banklari va moliyaviy o'quv tashkilotlarining tegishli mutaxassislari ishtirokida o'quv seminarlarini tashkil etish;

- bank-moliya tizimi bo'yicha malakali murabbiylar guruhlar va maxsus treninglar tashkil qilish.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, shu jumladan yillik moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda o'rnatilgan tartibda ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, banklarning veb-saytlarida joylashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Respublika moliya-bank tizimi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirilishi bank faoliyatining shaffofligini oshirishga, bu esa, o'z navbatida, xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlarning, omonatchilar va mijozlarning bank tizimi to'g'risida etarlicha ma'lumot olishiga, milliy moliya-bank tizimining xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuv jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

3. Tijorat banklari resurs bazasini yanada oshirish va diversifikatsiyalash, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari davom ettiriladi.

- qo'shimcha aksiyalarni chiqarish va ularni fond bozorlarida joylashtirish orqali banklarning jami kapitalini yil mobaynida kamida 20 foizga o'sishini ta'minlash;

- bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektori ulushini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish;

- depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, tijorat banklarida aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshirish hisobiga aholi va xo'jalik sub'ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini kamida 30 foizga oshirish;

- tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish va pul bozorida joylashtirish;

- bank infratuzilmalari, xususan, mini-banklar va maxsus kassalar tarmog'ini kengaytirish hamda ularning faoliyatini takomillashtirish orqali bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali bank xizmatlarining sifatini yanada yuksaltirish va ko'lamini kengaytirish bo'yicha

chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi borasidagi 2013 yilga mo'ljallangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash;

- bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada kengaytirish;

- banklardan tashqarida joylashgan va xavfsizligi ta'minlangan idora va tashkilotlar, yirik supermarket binolarida bank infokiosklari tarmog'ini kengaytirish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Banklarda omonatlar hajmining muttasil o'sishini ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalarida aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarining mablag'larini banklardagi depozitlarga joylashtirish bo'yicha shakllantirilgan kafolatlar tizimi, yaratilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni keng targ'ib qilish ishlari davom ettiriladi.

Shuningdek, hududlarda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida doimiy ravishda amaliy seminarlar o'tkazish, ularni bank xizmatlari bilan tanishtirish, bank mijozlarining huquqiy madaniyati va moliyaviy savodxonligini oshirish, shuningdek taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini va kelib chiqayotgan mavjud muammolarni baholash maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish ishlari davom ettiriladi.

4. Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-kuvvatlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan bank kreditlari hajmlarini yanada ko'paytirish va samaradorligini oshirish joriy yildagi muhim vazifalardan biridir.

2013 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kredit qo'yilmalari hajmining 25 foizga ko'payishi prognoz qilinmoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, qishloq joylarda loyihaviy yangi turar-joylarni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olish kabi

investitsiya loyihalariga tijorat banklari tomonidan 6,0 trln. soʻmdan ziyod kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Jumladan, 2013 yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi turar joylarni barpo etishga barcha manbalar hisobidan 796 mlrd. soʻm miqdorida kreditlar ajratish prognoz qilinmoqda. Shundan 251 mlrd. soʻm miqdoridagi mablagʻlar Osiyo taraqqiyot bankining kredit liniyasi hisobidan beriladi.

Kelgusi yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joy qurilishida «Qishloq qurilish bank» bilan bir qatorda, «Ipotekabank» hamda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki oʻz kredit mablagʻlari bilan ishtirok etishi rejalashtirilmoqda.

Kredit resurslarini investitsiya maqsadlariga samarali taqsimlash, kredit tavakkalchiliklari darajasini kamaytirish va istiqbolli investitsiya loyihalarini tanlash boʻyicha ishlar sifatini oshirishga katta eʼtibor qaratiladi, xususan:

- banklarda investitsiya loyihalarining ekspertizasi sifatini, shu jumladan, ushbu jarayon shaffofligini oshirish, loyiha ekspertizasi jarayonida barcha potensial omillar va risklarni inobatga olishni taʼminlash;

- tijorat banklari tomonidan xoʻjalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan birgalikda tashkil etilayotgan investitsion loyihalarni va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish boʻyicha injiniring kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish;

- tijorat banklarining investitsion faoliyatiga masʼul boʻlgan tashkiliy tuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish, shu jumladan ularning ishlarini tashkillashtirishni va samarasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini mustahkamlash boʻyicha zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

5. Tijorat banklari balansiga olingan moliyaviy nobarqaror va iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash va strategik investorlarga sotish ishlari davom ettiriladi, jumladan:

- bank balansidagi korxonalarda investitsiyalarni oʻzlashtirish, ishlab chiqarish faoliyatini tiklash, yangi ish oʻrinlarini yaratish va mahsulotlar (ish, xizmat) ishlab chiqarish boʻyicha prognoz koʻrsatkichlar bajarilishini taʼminlash;

- banklar balansidagi korxonalarni tiklash va sotish jarayoniga potensial, shu jumladan xorijiy investorlarni jalb qilishda banklarning boshqaruvchi kompaniyalari faoliyatini yanada kuchaytirish;

- yangi investorlarga sotilgan korxonalar bo'yicha oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan to'lovlarni to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash;

- bank balansidagi yangi investorlarga sotilgan korxonalar faoliyatini sotilgan kundan boshlab, investorlar tomonidan hisob-kitoblar to'liq amalga oshirilgunga qadar qadar monitoring qilib borish;

- iqtisodiy nochor korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash va moliyaviy sog'lomlashtirish, biznes-rejalarni bajarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari rahbarlari va tegishli tuzilmaviy bo'linmalari javobgarligini kuchaytirish va ularni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2013 yilda tijorat banklari tomonidan jami 6,1 trln. so'm miqdorida kreditlar ajratilishi prognoz qilinmoqda.

Jumladan, xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari jalb qilishni faollashtirish orqali kichik biznes sub'ektlarini 2013 yilda 110 mln. AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda moliyalashtirish rejalashtirilgan.

Ushbu kredit mablag'larini ajratishda asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya maqsadlariga, ularning boshlang'ich kapitalini shakllantirishga hamda mikrokreditlash ko'lamini kengaytirishga qaratiladi.

Shuningdek:

- uzoq va borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan, shuningdek ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaharlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga ustuvor ravishda Tijorat banklarining imtiyozli kreditlash fondi mablag'lari hisobidan kreditlash hajmlarini yanada kengaytirish;

- xizmat va servis sohasini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni, iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha «Mikrokreditbank» ATB tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga ajratiladigan mikrokreditlar hajmini oshirish;

- oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash hajmini oshirish bilan bir qatorda lizing, faktoring va savdoni moliyalashtirish xizmatlari ko‘lamini kengaytirish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini, jumladan murakkab maishiy texnika, mebel va boshqa mahsulotlarni xarid qilish uchun aholiga iste‘mol kreditlari ajratilishini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, 2013 yilni “Obod turmush yili” deb e‘lon qilinishi munosabati bilan iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish, xizmat sohasi va servisni rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlari yaratish borasidagi loyihalarni kreditlash ko‘lamlarini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

7. 2013 yilda bank tizimi faoliyatini baholashda etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo‘llaniladigan xalqaro me‘yor, andoza va baholash ko‘rsatkichlaridan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

Bunda:

- respublika tijorat banklari tomonidan «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining reyting baholarini muntazam ravishda yangilab borish;

- moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va taqdim qilishda uning shaffofligi, jumladan, xalqaro taqqoslanuvchanlik, davriylik, muddatlilik va sifatlik tamoyillariga rioya qilinishini ta‘minlash;

- banklar va ularning qimmatli qog‘ozlariga berilgan reytinglar, reyting darajalarining oshishi yoki pasayishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam e‘lon qilib borish;

- etakchi xalqaro reyting kompaniyalaridan mamlakat reytingini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda, banklar kapitali, aktivlari, boshqaruvi, daromadlari, majburiyatlarining sifati va darajasining xolis baholanishini ta'minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqiniga asosan tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

8. Mikromoliyalash sohasini va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish doirasida:

- tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish va nobank kredit tashkilotlari tomonidan mikromoliyalash xizmatlarini ko'rsatish hajmlarini kengaytirish, jumladan tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 1,3 trln. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratish;

- nobank kredit tashkilotlari tarmog'ini, ayniqsa viloyatlardagi shaharlarda va aholi zich joylashgan tumanlarda kengaytirish;

- nobank kredit tashkilotlari faoliyatida buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va boshqa hisobotlarni shakllantirishni avtomatlashtirish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali ular faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

- nobank kredit tashkilotlari kredit portfelini boshqarish bo'yicha talablarni kuchaytirish;

- nobank kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishga oid normativ-xuquqiy hujjatlar bazasini yanada takomillashtirish;

- mikromoliyalashtirish tashkilotlari tomonidan moliyaviy va ijtimoiy faoliyatlari bo'yicha hisobotlarning nashr etilishi amaliyotini kengaytirish tadbirlari amalga oshiriladi.

9. Moliya-bank tizimi faoliyatini xalqaro andozalar va tamoyillarga yanada muvofiqlashtirish maqsadida sohaga oid me'yoriy-xuquqiy hujjatlarni takomillashtirishga doir belgilangan vazifalarning ijrosi ta'minlanadi.

Jumladan, «Garov reestri to'g'risida»gi yangi qonun, «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, qonunlarning yangi tahriri hamda «Lizing to'g'risida»gi va «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunlarini takomillashtirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihalarini tayyorlash va muhokama qilish ishlari nihoyasiga etkaziladi.

10. Banklar va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash doirasida:

- O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Markaziy bank O'quv markazi, Hududiy bank o'quv markazi, TIF Milliy bank, DATB «Asaka», AKB «Agro bank» va Xalq banki o'quv markazlari, xorijiy va xalqaro o'quv markazlari, moliya institutlari tomonidan bank faoliyatining dolzarb yo'nalishlari bo'yicha tashkil qilinadigan kurslar va seminarlarda bank xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish ishlarini davom ettirish;

- tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirish, investitsion kreditlarni berish va ularga xizmat ko'rsatish bo'linmalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash;

- tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari va boshqa moliya tashkilotlarida ichki nazoratga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan xolda o'quv kurslarini tashkil etish;

- umumqabul qilingan xalqaro me'yor va andozalarga asosan bank faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarini tashkil etish, ularda yosh, iqtidorli mutaxassislarning ishtirok etishini ta'minlash tadbirlari amalga oshiriladi.



## **Xulosa va takliflar**

Banklar kapitallashuv darajasi va likvidligining oshishi pirovardida ular moliyaviy barqarorligining ta'minlanishiga, shuningdek, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvchi barqaror resurs bazasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Jahonda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz xususida Prezidentimiz o'z fikrlarini bildirar ekanlar, moliyaviy inqiroz holati va uning ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga doir fikrlarini davom ettirib, navbatdagi xulosani ta'kidlab o'tdilar: «... avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi»<sup>20</sup>.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining resurslarini tashkil kilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Shu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechiraetgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish tmzimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu, o'z navbatida, kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi va kredit qaktarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarining o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

---

<sup>20</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 5-b.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisobvaraqlaridan qoldiqlari;
- bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- olingan banklararo kreditlar;
- bank vakil tomonidan ochilgan «loro» depozit va valyuta hisobvaraqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar.

Rivojlangan mamlakatlar bank tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslar tarkibidagi xar bir kategoriya salmog'i, ulushi belgilangan me'yorlarga mos kelishi lozim bo'ladi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki har bir moliyaviy resurs turining me'yordan ko'p yoki kam bo'lishi bank faoliyati natijalari uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Har bir moliyaviy resurs turidan foydalanish va uni boshqarishning o'ziga xos usullari va qoidalari mavjud bo'lib, tashqi va ichki shart-sharoitdan kelib chiqib ulardan foydalaniladi. Muammoni tadqiq etib va olingan xulosalar asosida tanlangan ob'ektni tahlil qilib tijorat banklari kapitalini samarali boshqarishga quyidagi takliflarni kiritamiz:

1. Bank kapitalini yetarli darajada diversifikatsiya qilish, bank kapitali tarkibida muammoli moliyaviy resurslar salmog'ining imkon darajasida past bo'lishiga erishish.
2. Moliyaviy resurslar tarkibida daromad keltirmaydigan moliyaviy resurslar salmog'ining imkon darajasida past bo'lishiga erishish.
3. Moliyaviy resurslar va passivlar o'rtasida o'zaro mutanosiblikni vujudga keltirish.
4. Moliyaviy resurslarni joylashtirishda ta'minot va xatar darajasiga katta e'tibor qaratish.
5. Moliyaviy resurslar bo'yicha vujudga keladigan xatarlardan saqlanish uchun zahira va kapitalning yetarlilik darajasini saqlab turish.
6. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarga katta e'tibor qaratish.

7. Banklarning ma`lum tarmoqqa ixtisoslashuvidan asta-sekin chekinish.

Yuqorida keltirilgan takliflarning barchasi bank moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Ularni amaliyotga joriy qilish, fikrimizcha, banklarning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish faoliyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Banklarning raqobatbardoshligini oshiradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston 2010 y.
2. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni. T.: Sharq 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. T.: Sharq 1997 y.
4. Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston-2010-2012 yillar.
5. Bank nazorati bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: O'RMB, 2010-2012 yillar.
6. O'zbekiston Respublikasi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qonuni. 2005 yil 15 aprel, Bank axborotnomasi. № 17 2005 yil aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi 670-sonli «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi 726-sonli «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr , PF-4057-son.

- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr , PF-4058-son.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdaqi «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1245-sonli qarori.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdaqi «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449-sonli qarori.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2011 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-1449-sonli qarori.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2012 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-1675-sonli qarori.
- 16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2013 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-1887-sonli qarori.
- 17.Karimov. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». O'quv uslubiy kompleks. T. : TDIU, 2010 y.
- 18.Karimovning “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusida 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston

- Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi, Xalq so`zi gazetasi, 2011 yil 22 yanvar 16-son.
- 19.Karimovning “Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish” mavzusida 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi, Xalq so`zi gazetasi, 2013 yil 19 yanvar 13-son.
- 20.Karimov I. A. «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li». T.: «O`zbekiston», 1992 yil.
- 21.Karimov I. A. «Yo`limiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo`li». T.: «O`zbekiston» 1994.
- 22.Karimov I. A. «o`zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo`lida». T.: «O`zbekiston» 1995
- 23.Karimov I. A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin». T.: «O`zbekiston» 1996.
- 24.Karimov I. A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: «O`zbekiston» 1997.
- 25.Karimov I. A. «O`zbekiston buyuk kelajak sari». T.: «O`zbekiston» 1998.
- 26.Karimov I.A., Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O`zbekiston, 2005 yil.
- 27.Karimov I.A., Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch. T.: O`zbekiston, 2008 yil.
- 28.Karimov I.A., Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo`llari va choralari. T.:Iqtisodiyot, 2009 yil.
- 29.Rouz. P.S «Bankovskiy menejment» Moskva 1995. 468 s.
- 30.Abdullaev Sh «Pul kredit va banklar» Toshkent. Moliya 2000 yil
- 31.Saidboev Sh.D, Sirojiddinov I.K «Bank menejmenti va marketingi» Namangan 2001 y 80 bet.
- 32.O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2007 y., 12-son
- 33.Bank vedemostlari” haftaligi. T. 1999 yil 3 son.

34. Abdullaev Sh «Banklar faoliyatini strategik rivojlantirishni rejalashtirish» Bozor, pul va kredit № 1 2004 y 4-6 betlar.
35. Abdullaev Sh, Jumageldiev M. «Kredit portfelini boshqarishda diversifikatsiyalashning ahamiyati» Bozor, pul va kredit № 5, 203 yil 8,9 betlar.
36. Abdusalamova O. «Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari» Bozor, pul va kredit № 2, 2002 y 24-25 betlar
37. Aliev F. «Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank xatarlari» Bozor, pul va kredit № 5, 2003 y 10-12 betlar.
38. Ashurova N. «Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmi» Bozor, pul va kredit № 11, 2003 y 47-50 betlar.
39. Bank tizimi tub burilishlar davri. Bozor, pul va kredit № 2, 2004 yil 12-13 betlar.
40. Mullajanov F. «O'zbekiston bank tizimini erkinlashtirish va rivojlantirish istiqbollari» Bozor, pul va kredit № 8. 2003 y 3-7 betlar.
41. Musaeva F. «Tijorat banklari iqtisodiyotning real sektori xizmatida» Bozor, pul va kredit № 9. 2004 y 9-10 betlar.
42. Saidov D, Qodirov S «Mijozning kreditga layoqatliligi kredit mexanizmi asosiy elementi sifatida» Bozor, pul va kredit № 3, 2003 yil 14-15 betlar.
43. Salomov I, Demchenko S. «Investitsionnaya politika kommercheskix bankov» Bozor, pul va kredit № 11, 2003 y 9-11 betlar.
44. Saxobov U, Saxobov Sh, Fayzullaev S. «Nekotoro'e problema' finansirovaniya investitsionno'x proektov i bankax i puti ix resheniya» Bozor, pul va kredit № 6, 2003 y 9-11 betlar.
45. Ten V, Jovlieva O. «Rol kredita v investitsionnom protsesse» Bozor, pul va kredit № 11, 2003 y 39-41 betlar.
46. Tulyabaeva R «Sovershenstvovanie kreditnogo protsessa v usloviya liberalizatsii» Bozor, pul va kredit № 7, 2002 y 14-15 betlar
47. Shodiev T. «Tijorat banklari moliyaviy resurslari daromadlilikini oshirish» Bozor, pul va kredit № 5, 2003 yil 3-5 betlar.

- 48. <http://www.mf.uz>
- 49. <http://www.cbu.uz>
- 50. <http://www.mcfr.uz>
- 51. <http://www.cer.uz>
- 52. <http://www.ref.uz>